

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

«MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI» FAKULTETI

«SANOAT ISHLAB CHIQARISHINI TASHKIL ETISH» KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»

«HIMOYAGA QO'YILDI»

«Mashinasozlik texnologiyasi» «Sanoat ishlab chiqarishini tashkil
fakulteti dekani etish» kafedrası mudiri

M-A.Eshonov U.A.Madraximov

«__»____ 2018-y.

«__»____ 2018-y.

“Iqtisodiyot” yo’nalishi talabasi

Axmedov Bobur Shuxratovichning

**SANOAT KORXONALARINI MODERNIZATSIYALASHDA LIZINGDAN
FOYDALANISH MASALALARI MAVZUSIDAGI**

(“Taxos” xususiy korxona misolida)

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

M.B.Umurzaqov

Ilmiy maslahatchi:

Z. S. Umurzaqova

«TASDIQLAYMAN»

Kafedra mudiri _____ M-A.Eshonov

«____» _____ 2018- y.

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO’YICHA TO’SHIRIQ

Talaba Axmedov Bobur Shuxratovichning

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi Sanoat korxonalarini modernizatsiyalashda lizingdan foydalanish masalalari (“Taxos” xususiy korxona misolida)

2. Kafedraning 2017 yil 7-dekabrdagi 4-sonli majlisida ma’qullangan.

- Bitiruv ishini to’shirish muddati 2018 yil 4 iyun
- Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang’ich ma’lumotlar: prezident asarlari va ilmiy ishlari, ma’ruzalari, mavzuga oid o’quv va ilmiy adabiyotlar, “Taxos” xususiy korxonasining 2015-2017 yilgi statistik va hisobot hujjatlari

3. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro’yxati)

- Kredit va lizing o’rtasidagi farqlanishlar
- “Taxos” xususiy korxonasining asosiy texnik – iqtisodiy ko’rsatkichlari
- “Taxos” xususiy korxonasi buxgalteriya balans tahlili
- “Taxos” xususiy korxonasi moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisoboti tahlili - Lizing obyekti qiymatini bir tekis to’lash jadvali -

4. Chizma ishlar ro’yxati (nomi aniq ko’rsatiladi) -

- Moliyaviy lizing sxemasi
- Operativ lizing sxemasi
- Qaytariluvchi lizing
- «Taxos» xususiy korxonasining boshqaruv strukturasi

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha maslahatchi(lar)

№	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi f. i. sh.	Imzo, sana	
			To'shiriq berildi	To'shiriq bajarildi
1.	Kirish	Umurzaqova. Z	18.01.2017y	27.01.2017y
2.	Sanoat korxonalarining modernizatsiyalashda lizingdan foydalanishni nazariy va huquqiy asoslari	Isroilova D Umurzaqova. Z	29.01.2017y	28.02.2017y
3.	“Taxos” xususiy korxonasiningning tashkiliy-iqtisodiy tasnifi va iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili	Eraliyev A Umurzaqova. Z	06.03.2017y	10.04.2017y
4.	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalari faoliyatida lizing operatsiyalarini rivojlanishining yanada takomillashtirish masalalari.	Eraliyev A Umurzaqova. Z	11.04.2017y	07.05.2017y
5.	Xulosa	Umurzaqova. Z	08.05.2017y	21.05.2017y

7. Bitiruv malakaviy ishini bajarish rejasi

№	Bitiruv malakaviy ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruv dan o'tgan lik belgisi
1	Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda modernizatsiyaning roli va ahamiyati	29.01.2018y	
2	Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda lizingdan foydalanishning iqtisodiy mazmun-mohiyati	10.02. 2018y	
3	O'zbekistonda lizingni rivojlantirish yo'llari va muommolari	20.02. 2018y	
4	“Taxos” xususiy korxonasining tashkiliy-iqtisodiy tavsifi	06.03. 2018y	
5	“Taxos” xususiy korxonasining 2015-2017 yillardagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili	20.03. 2018y	
6	“Taxos” xususiy korxonasida lizing xizmatlaridan foydalanish tahlili	11.04. 2018y	

7	Sanoat korxonalarida lizing jarajonlarini rivojlantirish yo'llari	21.04. 2018y	
8	Sanoat korxonalari faoliyatida lizing asosida moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llar	30.04.2018y	

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: M.Umurzaqov

(imzo)

To'shiriqni bajarishga oldim: B.Axmedov

(imzo)

To'shiriq berilgan sana:

18-dekabr 2018 yil

MUNDARIJA

KIRISH		5
I-BOB. Sanoat korxonalarining modernizatsiyalashda lizingdan foydalanishni nazariy va huquqiy asoslari		
I.1.	Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda modernizatsiyaning roli va ahamiyati	8
I.2.	Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda lizingdan foydalanishning iqtisodiy mazmun-mohiyati	12
1.3.	O'zbekistonda lizingni rivojlantirish yo'llari va muommolari	
II-B OB .“Taxos” xususiy korxonasining tashkiliy-iqtisodiy tasnifi va iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili		
II.1.	“Taxos” xususiy korxonasining tashkiliy-iqtisodiy tavsifi	21
II.2.	“Taxos” xususiy korxonasining 2015-2017 yillardagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili	28
III.3.	“Taxos” xususiy korxonasida lizing xizmatlaridan foydalanish tahlili	37
III-B OB. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarini faoliyatida lizing operatsiyalarini rivojlanishining yanada takomillashtirish masalalari.		
III.1.	Sanoat korxonalarida lizing jarajonlarini rivojlantirish yo'llari	54

III.2.	Sanoat korxonalari faoliyatida lizing asosida moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llar	62
XULOSA		66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI		69
ILOVALAR		

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish— hozirgi davr talabidir. Bu xech eskirmaydigan muammodir, chunki korxona mulkining yoki ijtimoiy tuzumning qanday shaklda bo'lishidan qathiy nazar, hamisha dolzarb bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida shunday ta'kidlagan edi:- “Bugun mamlakatimizning barqaror rivojlanish yo'lida izchil ilgari lab borishini tahlil qilar ekanmiz, o'tgan yili printsi pial muhim islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qathiy qadamlar qo'yildi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Bu islohotlarning asosiy maqsadi – aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlashdir”¹.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy o'zgarishlar natijasi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini yanada rivojlantirish masalalari hamda sanoat korxonalari mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlar lizing munosabatlarini

¹ “Халқ сўзи”, газетаси 2017-йил 19-январь.

iqtisodiyotga joriy etish zaruriyatini kun tartibiga qo'ydi. Moliyaviy inqirozga uchragan yoki aylanma mablag'i bo'lmagan korxonalar lizing orqali asosiy ishlab chiqarish vositalarini tezda yangilash, zamonaviy texnologiyalarni korxonalarga joriy etish va shu asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati hamda hajmini keskin oshiradi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov: "Biz yangi ish boshlayotgan tadbirkorlarning o'z faoliyati uchun zarur uskuna va jihozlar sotib olishga imkon beradigan lizing tizimini rivojlantirishga ham alohida e'tibor bermoqdamiz" ², - deb bir necha marta ta'kidlab o'tgan. Lizing korxonalarni modernizatsiya qilish va ularning negizida raqobatbardosh ishlab chiqarishni tashkil etish uchun mablag' sarflashning samarali mexanizmidir. Taqdim etilgan soliq imtiyozlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning unga bo'lgan qiziqishining ortishi O'zbekistonda lizingni jadal rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Lizing operatsiyalari kapital bozorida mablag'larni jamlash, ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish imkoniyatlarini oshirish, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, dastlabki kapital yetarli bo'lmagan sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga lizing yordamida o'z faoliyatlarini boshlash va kengaytirish imkoniyati beriladi.

Bitiruv malakaviy ishning tadqiqot ob'yekti. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan lizing munosabatlari tizimi hisoblanadi. **Bitiruv malakaviy ishning predmetini** O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini lizing asosida moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar mexanizmi tashkil etadi. **Bitiruv malakaviy ishning maqsadi.** Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini lizing asosida moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish borasida taklif - tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

² Karimov I.A. Islohotlar strategiyasi – mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdir, Milliy ta'lim, 21.02.2003 - №3.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda modernizatsiyaning roli va ahamiyatini o'rganish;
- Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda lizingdan foydalanishning iqtisodiy mazmun-mohiyatini o'rganish;
- O'zbekistonda lizingni rivojlantirish yo'llari va muommolarini o'rganish
- "Taxos" xususiy korxonasining tashkiliy-iqtisodiy tavsifini o'rganish
- "Taxos" xususiy korxonasining 2015-2017 yillardagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlilini o'rganish;
- "Taxos" xususiy korxonasida lizing xizmatlaridan foydalanish tahlilini o'rganish;
- Korxonalarga investisiyalarni jalb qilish va rivojlantirish yo'llarini o'rganish;
- Sanoat korxonalari faoliyatida lizing asosida moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llarini o'rganish.

Mavzuning nazariy - amaliy ahamiyati. Mamlakatimizda lizing xizmatlarining zamonaviy bozor talablari asosida takomillashib, tobora kengayishi, o'z navbatida, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, xususiy tadbirkorlik va raqobatni rivojlantirishda samarali mehanizm hisoblanadi.

Yurtimiz lizing xizmatlari bozorida 5,5 mingdan ziyod bitim imzolanib, ularga 430 milliard so'mdan ko'proq mablag' yo'naltirildi. Ushbu bitimlarning asosiy qismi lizing kompaniyalari va 1,5 mingga yaqini banklarga tegishlidir.

O'zbekistonda lizing munosabatlari nafaqat o'zining an'anaviy vazifalarini (moliyaviy, ishlab sotish), balki, sifat jihatidan yangi vazifalarni (jonlantirish, takror ishlab chiqarish, innovatsion, sug'urta) ham bajaradi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari - O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, SH.M.Mirziyoevning mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan farmon va

qarorlar, tanlangan mavzu bo'yicha vatanimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari xisoblanadi.

Mazkur ilmiy tadqiqotda ushbu muammolar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, me'yoriy xujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Qarorlari, Internet tarmog'idan olingan ma'lumotlar va – "Taxos" xususiykorxonasi reja va xisobot ma'lumotlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi - kirish, asosiy mazmunini ifodalovshi 9 ta savol, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, xamda ilovalardan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi. Malakaviy ish kirish, 3ta bob, 8ta bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

I- BOB. Sanoat korxonalarining modernizatsiyalashda lizingdan foydalanishni nazariy va huquqiy asoslari

1.1. Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda modernizatsiyaning roli va ahamiyati

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlarida iqtisodiy nazariya tadbirkor, firma va davlatni modernizatsiyalash jarayonining alohida unsurlari sifatida ta'riflashdan ularga murakkab tizimning o'zaro bog'liq bo'g'inlari sifatida qarashgacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi. Ayni paytda bu tizim modernizatsiyalashlarning asosiy manbasi sifatida fan, universitetlar va ilmiy markazlar bilan cheklangan yopiq tizim emas, balki milliy davlatlar doirasida, xo'jalik korxonalari tarmoqlarida va yirik korporatsiyalar hamda kichik kompaniyalarda yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlarga uyg'unlashgan tizim ekanligi chuqur anglab etildi.

O'tgan asrning 80-yillarida fan-texnika o'zgarishlar sur'atlarining o'sishi, ilmiy echimlarga asoslangan ishlab chiqarish va xizmatlarning jadal rivojlanishi rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning jadallashuviga yangi turtki bo'ldi. Jahon ishlab chiqarishida muhim iqtisodiy resurslar sifatida ilmiy echimlar va

modernizatsiyalashlardan foydalanish asosida o'sishning yangi yo'nalishi shakllana bordi.

Bugungi asosiy vazifa milliy modernizatsiyalash tizimni rivojlantirishning strategik maqsadlarini shakllantirishdan iborat.

Hozirgi zamon jahon iqtisodiy adabiyotlarida "modernizatsiyalash" ilmiy texnika yutuqlariga erishish jarayonini yangi mahsulot va texnologiyalarga asoslangan haqiqiy jarayonga aylantirish omili sifatida talqin etilmoqda. Ularning fikricha, modernizatsiyalash texnika, ishlab chiqarish va tijorat tadbirlari jamlanmasi bo'lib, bozorga yangi uskunalarni kiritish hisoblanadi.

Modernizatsiyalashning mazmuni bo'yicha boshqa talqinlar ham juda ko'p. Yuqoridagilarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkin: modernizatsiyalashning asosiy mazmuni o'zgarish, bosh vazifasi esa vazifaning o'zgarishi, demakdir.

Bir ijtimoiy-iqtisodiy tizimni ikkinchisi bilan almashtirishda anchagina yangilanishlar bo'lmoqda, ko'p tarmoqli iqtisodiyotni modernizatsiyalash o'tishi natijasida, modernizatsiyalash jarayoni jamiyat hayotiy faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohagagina modernizatsiyalash kiritish bilan cheklanib qolmaydi va modernizatsiyalash jarayoni pirovardida ishlab chiqarishdagi inqirozlarni bartaraf etib, ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi.

Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadidagi asosiy chora tadbirlar ham ushbu yo'nalishni taraqqiy etdirish orqali korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligiga erishish uchun ishlatilmoqda. Tayyor mahsulotni chiqarishda korxonalar oldidagi birinchi vazifa mehnat resurslaridan, moddiy texnika vositalari va moliyaviy vositalardan samarali foydalanish, bahoning foydadan ustunligini ta'minlash, ishlab chiqarish rentabelligini oshirish hisoblanadi.

Xom ashyo etishtiruvchilar industrial modernizatsiyalashda ishtirok etishi ularning mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirishiga imkon beradi. Shu bois, industrial modernizatsiyalashda xom ashyo etishtiruvchilarning ishtirok etishi bo'yicha mexanizmni yaratish, ishlab chiqarish rejasiga, shuningdek, tadqiqot ishlari

rejasiga, ya'ni modernizatsiyalashning ilmiy ta'minotiga ushbu masala kiritilishi lozim. Shunday qilinsa, yana bir muhim masala hal etiladi: ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashda korxona ishtiroki yanada takomillashadi.

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga, shuningdek, qishloq xo'jalik korxonalari mahsulotlari eksporti doirasini kengaytirishga ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va xizmatlar bo'yicha muammolarni hal qilish orqali erishiladi. Shu bilan birga hozirgi davrda oziq-ovqat bilan ichki bozorni ta'minlashda ham davlat himoyasi zarur, shuningdek, davlat tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ularning qayta ishlanganlariga o'zgaruvchan bahoni qo'yish, er va soliq qonunlari, investitsiya kiritish uchun engilliklar berish orqali imkoniyatlar yaratiladi.

Sanoat korxonalarini jadal va to'liq rivojlantirish uchun ishlab chiqarish modernizatsiyasini qo'llash talab qilinadi. Buning uchun er va mehnat resurslari imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqish, ishlab chiqarish texnologiyalarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, tarmoqning moddiy-texnika bazasi talab darajasida mustahkamlanishiga erishish zarur.

Bunda shuningdek, ishlab chiqarish korxonalari mahsulotlari turlari bo'yicha, mashina majmuasini yangilashga alohida ahamiyat berish lozim. Shuni hisobga olib, ishlab chiqarish sanoatini

modernizatsiyalash rivojlantirish masalasini qayta ko'rib chiqib, soha uchun zarur texnika vositalarining ma'lum qismini yaqin va uzoq xoriждан keltirish masalasini hal qilish lozim. Muammolardan yana biri sanoatda ishlab chiqarish, bozor bilan bog'liq muammodir. Bu muammoning echilishi, davr talab qilayotganidek, yig'ib olingan mahsulotdan samarali foydalanish, uni samarali taqsimlash, qayta ishlash sanoatini kengaytirish, har xil iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni taqozo etadi. Bunga erishish esa, ishlab chiqarish korxonalari mahsulotlari samaradorligini, shuningdek, ichki

bozordagi singari tashqi bozorda ham ularning raqobatbardoshligini ma'lum darajada oshiradi.

O'zbekistonning modernizatsiyalash tizimi xo'jalik korxonalari yuritishning yangi tizimiga ko'nikishi, avvalambor, tadbirkorlik sektori modernizatsiyalash faoliyati transformatsiyasini, ya'ni, «texnologik turtki» modelidan yangi mahsulotga talabni aniqlash modeliga o'tishda namoyon bo'ladi. O'zbekiston iqtisodiyotining turli sektorlarida amalga oshirilayotgan xalqaro ilmiy-texnik va texnik hamkorlik, korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi, yangi texnologiyalar ichki bozorlarga kirib kelishiga ko'maklashadi.

Hozirda ko'p ilm-fan talab qiladigan va texnik jihatdan murakkab tarmoqlarning rivojlanishi yuqori darajada globallashtirish, jahon savdo-sotiq kanallari bo'yicha, transmilliy korporatsiyalarni global ishlab chiqarish va sotish tarmoqlari orqali texnologik yangiliklar tarqalishi bilan xarakterlanadi. Ko'p ilmiy echim talab qilinadigan ishlab chiqarishni avval eksport uchun, so'ngra ichki bozor uchun tashkil qilish ko'pgina mamlakatlar iqtisodiyoti yuksalishining asosiy omili bo'lmoqda.

Sanoat ishlab chiqarish korxonasining bozor iqtisodiga moslashish maqsadi tovar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun barqaror ijtimoiy-iqtisodiy bazani yaratish, erkin agrar tadbirkorlik, resurslardan va er imkoniyatidan unumli foydalanish va qishloq xo'jaligi sohasini ekologik tenglamasini qo'llash asosida samarali shakllantirishda sharoit va omillarning o'zaro muvofiqligini ta'minlashdan iborat.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning modernizatsiyalash imkoniyati yanada oshirish va shu asosda iqtisodiy o'sishning sifat ko'rinishiga o'tish muhim hisoblanadi. Bunda ishlab chiqaruvchilar bozor faoliyatining iqtisod zamonaviylashgan sharoitdagi yutuqlariga bevosita bog'liq innovatsion standartlarni birmuncha o'zlashtirishadi. U, o'z navbatida, ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida aholi moddiy farovonligini ko'tarishga qaratilgan, moddiy talabni qondirish, ekologik ta'minot va ijtimoiy muhitni shakllantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni targ'ib qiladi. Modernizatsiya sohasini shakllantirish masalalarini tadqiq qilish, loyiha institutsional mexanizmlarini o'zlashtirish, kelgusida iqtisodiy rivojlanish sur'atining bosh omili sifatida ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalanish va davlat

innovatsiya siyosatini qo'llash mutaxassislar, amaliyotchilar va ilmiy jamoa qiziqishini uyg'otadi.

Hozirda ko'p ilm-fan talab qiladigan va texnik jihatdan murakkab tarmoqlarning rivojlanishi yuqori darajada globallashtirish, jahon savdo-sotiq kanallari bo'yicha, transmilliy korporatsiyalarni global ishlab chiqarish va sotish tarmoqlari orqali texnologik yangiliklar tarqalishi bilan xarakterlanadi. Ko'p ilmiy echim talab qilinadigan ishlab chiqarishni avval eksport uchun, so'ngra ichki bozor uchun tashkil qilish ko'pgina mamlakatlar iqtisodiyoti yuksalishining asosiy omili bo'lmoqda.

1.2. Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda lizingdan foydalanishning iqtisodiy mazmun-mohiyati.

Kichik biznes sub'yektlari o'z faoliyatini o'z mablag'lari, qarz mablag'lari, jalb qilingan mablag'lar evaziga asosan quyidagi usullar asosida moliyalashtiradilar:

- O'z-o'zini moliyalashtirish;
- Kreditlashtirish;
- Byudjetdan moliyalashtirish;
- Lizing asosida moliyalashtirish.

Lizing zamonaviy ilg'or texnologiyalar fan va texnika taraqqiyoti natijalarini zudlik bilan amaliyotga tadbiq etishda qo'l keladigan moliyaviy vositalardan biri bo'lib, qadim zamonlardan dunyoning ko'pgina mamlakatlarida rivojlanib keladi. Lizing, uning ishtirokchilari manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ishlab chiqaruvchi, lizing beruvchi va lizing oluvchilarning faoliyatlarini makon va zamonda amalga oshirishga va jadallashtirishga imkon beradi. O'zbekistonda lizing bugungi kunda rivojlanib borayotgan sohalardan biridir. Iqtisodiyotimizda real sohalarni moliyalashtirishga bo'lgan uzoq muddatli ichki talabning yuqoriligi va moliyalashtirishning boshqa muqobil manbalariga qaraganda lizingning afzalliklari, uni yanada rivojlantirish uchun asos bo'lmoqda.

Lizing munosabatlari rivojlanishi o'z navbatida ma'lum bir mehnat qurolini sotib olmasdan turib, undan badal to'lovi to'lagan holda foydalanish g'oyasining vujudga

kelishi bilan tavsiflanadi. Ilk marotaba lizing bitimi mohiyatini ochib beruvchi ta'rifni Aristotelning "Retorika" asarida uchratishimiz mumkin, ya'ni unda: "Bozlik - xususiy mulk huquqiga ega bo'lishda emas, balki undan foydalanishdan iborat bo'ladi", deyilgan.³ Ilk bor "lizing" atamasi 1877 yilda qo'llanilgan, o'sha davrda "Bell" telefon kompaniyasi o'zining telefon apparatlarini mijozlarga sotmasdan, balki ijaraga berish to'g'risida qaror qabul qilish bilan uning dastlabki qadamlarini boshlagan edilar. Bunga ko'ra, o'rnatiladigan asbob-uskunalar mijozning uyi yoki ofisiga faqat ijara to'lovlari bo'yicha o'rnatiladigan bo'ldi.

Lizing jarayonlari bo'yicha asosiy ish faoliyatini yuritadigan dastlabki aksionerlik jamiyati 1952-yilda San-Fransiskoda tashkil etilgan "United States Leasing Corporation" Amerika kompaniyasidir. Fransiyada birinchi lizing kompaniyasi 1957-yil, Angliyada-1960 yil, Germaniyada-1962 yil, Italiyada-1963 yil, Yaponiyada-1969 yilda tashkil etilgan. Bunday kompaniyalar vatanimizda 1990-yillarning o'rtalariga kelib tashkil etila boshlandi⁴.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotda va amaliyotda lizingning turli xil ta'riflari mavjud.

Lizing - sotib olish asosida mol-mulkni vaqtinchalik foydalanishga va keyinchalik uzoq muddatli ijaraga berish bilan bog'liq mol-mulk munosabatlari majmui. Lizing sotib olinadigan texnika va asbob-uskunalarni kreditlashning bir turi bo'lib, an'anaviy bank ssudasi, kreditning muqobil shaklidir. Lizingda asbob-uskunalarni sotib olish qator masalalarni, shu jumladan, ijara, sug'urta kafolatlash va boshqalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Lizing - ijara munosabatlarining bir turi bo'lib, bunda lizing beruvchi o'z hisobidan ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) dan lizing ob'yektini xarid qilish maqsadida, u bilan lizing oluvchining topshiriqnomasiga ko'ra, shartnoma tuzish majburiyatini olishi, lizing oluvchi esa, lizing obyektidan foydalanish evaziga lizing beruvchiga lizing

³ Ануфриева Л.П. Международное частного право. – М.: Бек, 2000. – С.296

⁴ A.Uzoqov, N.Kenjaev «Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish» T.:Iqtisod-moliya, 2007,191 b.

to'lovlarini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga olishini mujassamlovchi, mol-mulkning sotib olinishini moliyalashtirish bo'yicha ijara munosabatlari shaklidir.

Lizing - mol-mulkni mijozga vaqti - vaqti bilan pul to'lab turish evaziga ma'lum bir muddatga berish.

Lizing - yuridik va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida, vaqtinchalik ishlatish uchun ma'lum to'lov evaziga mol-mulkni sotib olish maqsadida bo'sh yoki jalb qilingan investitsiyalarni yo'naltirish bo'yicha tadbirkorlik faoliyati turi.

Lizing - ijara muddati mobaynida ijaraga beruvchi mol-mulkka nisbatan huquqlarini saqlab qolgan holda, ijaraga oluvchi uchun ishlab chiqarishda foydalanish maqsadlarida sotib olingan mol-mulk ijarasining turi. **Lizing inglizchadan** so'zmaso'z tarjima qilinganda, "ijara" yoki "ijaraga olmoq" ma'nosini beradi. Lizing ijaraning kreditga yaqinlashgan o'ziga xos ko'rinishi bo'lsa ham ular o'rtasida bir qancha farqlanishlar mavjud. Taqqoslash jadval ko'rinishida quyida aks ettirilgan⁵ (1.2.1-jadval)

Bundan tashqari, lizing mohiyatini ochishda uning tarkibiy qismlari bo'lmish lizing ob'yekti va sub'yektlariga ham aniqlik kiritib o'tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Lizing sub'yektlariga: lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi lizing sub'yektlaridir.

❖ Lizing beruvchi – lizing shartnomasi bo'yicha lizing ob'yektini keyinchalik lizing oluvchiga berish maqsadida mulk qilib sotib oladigan bank yoki lizing kompaniyasi yoxud ularning shu'ba kompaniyalari (qonunchilik hujjatlari bo'yicha lizing beruvchi bo'lib nafaqat lizing kompaniyalari yoki banklar, balki har qanday yuridik va jismoniy shaxs ham lizing beruvchi bo'lib maydonga chiqishi mumkin.

⁵ O'zb. R.savdo - sanoat palatasi, O'zb. Banklar assotsiatsiyasi Baraka universal lizing komp. «Lizing... bu nima?» Tadbirkorlar uchun o'quv qo'llanma, T.:O'zbekiston, 2006,12-13 b.

- ❖ Lizing oluvchi – lizing shartnomasi bo'yicha lizing ob'yektiga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun oladigan yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor yoki jismoniy shaxslar. Lizing sotuvchi Lizing beruvchi Lizing oluvchi
- ❖ Sotuvchi – lizing beruvchiga lizing ob'yektini sotuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar

1.2.1-jadval

Kredit va lizing o'rtasidagi farqlanishlar

	Kredit	Lizing
Qatnashchilar	Kredit beruvchi va oluvchi. Sotuvchi, lizing beruvchi va lizing oluvchi.	Sotuvchi, lizing beruvchi va lizing oluvchi
Moliyalashtirish	Pul vositalari kredit shartnomasi bo'yicha bevosita kredit oluvchining hisob raqamiga kelib tushadi.	Lizing beruvchi lizing obyektini sotib oladi va uni lizing oluvchiga beradi.
Obyektga egalik huquqi	Kreditga sotib olingan mulkka egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish huquqi kredit oluvchiga tegishli.	Lizing shartnomasi amal qilish davomida, lizing obyektini lizing beruvchining mulki hisoblanadi. Lizing oluvchi esa ushbu obyektidan foydalanish va egalik qilish huquqiga ega. Lizing shartnomasining muddati tugagach va barcha to'lovlar to'langandan keyin, lizing obyektini to'liq lizing oluvchining mulkiga aylanadi.
Garov ta'minoti	Garov ta'minoti qiymati bank tomonidan belgilanadi (odatda kredit qiymatining 125% hisobida).	Garov ta'minoti kattaligini har bir lizing kompaniyasi mustaqil ravishda o'rnatadi.
Moliyalashtirish hajmi	Odatda, xarid qilinayotgan obyektning to'liq qiymati qamrab olinmaydi. Kredit oluvchi qisman o'z mablag'ini ham qo'llashi talab qilinadi	Lizing obyektini narhining lizing beruvchi tomonidan to'liq qoplanishi ko'zda tutilgan.
Foizlarning to'lanishi	Odatda, har oyda ma'lum bir belgilangan stavkada amalga oshiriladi.	Har oy yoki har chorakda amalga oshiriladi. Har bir lizing obyektini uchun alohida yondashiladi. Lizing to'lovlari lizing oluvchining daromadiga qarab birbiridan farq qilishi mumkin

Soliq sohasidagi afzalliklari	Uzoq muddatli kreditlarda daromadning soliq solinadigan bazasini belgilashda foizlar ayirib tashlanmaydi.	Lizing shartnomasi amal qilish muddatida lizingga olingan mulk soliqlardan ozod qilinadi. Daromadning soliqqa tortiladigan bazasini belgilashda lizing oluvchi qonunchilikka muvofiq quyidagilardan ozod bo'ladi: a) lizingga olingan asosiy vositalarning amortizatsiya to'lovi summasi; b) lizing shartnomasi amal qilish muddatidan kat'iy nazar lizing bo'yicha foizlar.
--------------------------------------	---	---

Lizing ob'yekti – iste'mol qilinmaydigan va qonunchilik bilan taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyatida qo'llaniladigan har qanday buyumlar, barcha mulk majmualari, shu jumladan, korxona, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk bo'lishi mumkin. Muomaladan olingan yoki muomala doirasi

chegalangan yer uchastkalari va boshqa tabiat ob'yektlari bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining 14-aprel 1999-yil qabul qilingan “Lizing to'g'risida”gi qonunida lizing tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: “Lizing ijara munosabatlarining alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasida belgilangan shartlarda berib qo'yish maqsadida mol - mulkni

(lizing obyektini) oladi”⁶

Shu bilan birga, prof. D.G'ozibekov lizing tushunchasiga aniq va to'liq qilib quyidagicha ta'rif beradi: “Lizing alohida turdagi mulkiy va huquqiy munosabatlar majmuasini vujudga keltiradigan alohida kredit va ijara munosabatlari vositasida kapitalning pul va buyum shaklida taqsimlanishi sohasidagi iqtisodiy munosabatlar yig'indisidan iborat”²

⁶ O'zbekiston Respublikasining “Lizing to'g'risida”gi Qonuni, 1999 yil 14 aprel, 2 - modda.

² D.G'.G'ozibekov “Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari”. T. “Moliya”,

Lizing shartnomasi bo'yicha lizing beruvchining o'z mablag'i va (yoki) qarz mablag'larini investitsiyalashga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati turi lizing faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda ko'char va ko'chmas mulk lizing ob'yektlari bo'lishi mumkin.

Yer uchastkalari va boshqa tabiat ob'yektlari, shuningdek erkin muomalada bo'lishi qonun hujjatlari bilan ta'qiqlangan yoki muomalada bo'lishining alohida tartibi belgilangan mol-mulk lizing ob'yektlari bo'lishi

mumkin emas. («Lizing to'g'risida»gi qonunning 3-moddasi)

Lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi lizing subyektlaridir. Lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchiga kelgusida topshirish maqsadida lizing obyektni mulk qilib oluvchi shaxs lizing beruvchi deb e'tirof etiladi. Egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasi bo'yicha lizing obyektni olayotgan shaxs lizing oluvchi deb e'tirof etiladi.

Lizing beruvchi lizing ob'yektini kimdan olayotgan bo'lsa, shu shaxs sotuvchi deb e'tirof etiladi.

Lizing operatsiyasining qatnashchilari (subyektlari) soniga qarab shartnomalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- lizing beruvchi va mol-mulk sotuvchisi lizing operatsiyasida bitta shaxs sifatida qatnashuvi ikkiyoqlama lizing shartnomalari (bevosita lizing) ➤ mol-mulkni lizingga beruvchi va moliyaviy vositachi sifatida qatnashuvi lizing kompaniyasi bilan ko'pyoqlama lizing shartnomalari (bilvosita lizing). Bunday shartnomaning klassik variantida uch tomon: sotuvchi, lizing beruvchi, lizing oluvchi qatnashadi.

Lizing mol-mulkning shakliga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- ko'char mulk lizingi (ishlovchi mashinalar va sanoat tarmoqlari uchun asbob-uskunalar, hisoblovchi mashina va tashkiliy texnika , transport vositalari va h.k.)
- ko'chmas mulk shaklidagi lizing (ishlab chiqarish bino va inshootlari).
Lizing operatsiyalari o'tkaziladigan bozor sektoriga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:
- Ichki lizing, bunda shartnoma qatnashchilari bitta davlat rezidentlaridan iborat bo'ladi.
- Xalqaro (tashqi) lizing, bunda lizing beruvchi va lizing oluvchilar turli davlatlarning xo'jalik yurituvchi subyektlaridirlar. Mulk sotuvchisi o'sha davlatlarning birida yoki boshqa davlatda bo'lishi mumkin.

Lizing to'lovlarining shakliga muvofiq lizingning quyidagi turlari mavjud:

- To'lovlar pul shaklida amalga oshiriladigan pullik lizing.
- Lizing oluvchi lizing beruvchi bilan ijaraga berilgan uskunalar asosida, ishlab chiqarilgan mahsulot yoki muqobil xizmatlar ko'rsatish orqali hisoblashadigan kompensatsion to'lovli lizing.
- To'lovlarning bir qismi pul ko'rinishida, qolgan bir qismi tovar va xizmatlar ko'rinishida amalga oshiriladigan aralash lizing.

Ko'rsatiladigan xizmatlarning ko'lami jihatidan lizing quyidagi turlarga bo'linadi:

- Sof lizing - ijaraga olingan mulkka ko'rsatiladigan barcha xizmatlar lizing oluvchi zimmasiga yuklatilgan munosabatlar. Shuning uchun ushbu holatda uskunalariga xizmat ko'rsatish xarajatlari lizing to'lovlari hisobiga kiritilmaydi.
- To'la xizmat ko'rsatiladigan lizing - lizing mulkiga texnik xizmat ko'rsatish, uni ta'mirlash, sug'urta qilish va boshqa operatsiyalarni bajarish lizing beruvchi zimmasida bo'lishini nazarda tutadi. Ushbu xizmatlardan tashqari, lizing oluvchining istagiga ko'ra, lizing beruvchi subyekt bir qator xizmat turlari, shu jumladan, kadrlar tayyorlash, marketing, hom ashyo yetkazib

berish va hokozolar bilan bog'liq majburiyatlarni ham o'z zimmasiga olishi mumkin.

Jahon amaliyotida, lizingning asosiy tiplari ijara muddati bo'yicha: uzoq muddatli - lizing (uch yil yoki ko'proq muddatda amalga oshiriluvchi); o'rta muddatli - hayring (bir yildan uch yilgacha); qisqa muddatli - reyting (bir yildan kam bo'lgan muddatli).

Lizingning asosiy turlariga moliyaviy va operativ lizingni kiritish mumkin.

Moliyaviy lizing - lizing beruvchi lizing oluvchi tomonidan belgilangan mulkni sotuvchidan sotib olish va lizing oluvchiga belgilangan to'lov va lizing predmeti to'liq amortizatsiya muddatiga teng bo'lgan muddatga ma'lum bir shartlar asosida vaqtinchalik foydalanishga berishdir (1.2.1-rasm.)



1.2.1-rasm. Moliyaviy lizing sxemasi⁷

«Xalqaro moliyaviy lizing to'g'risida»gi Konvensiyada moliyaviy lizingning ta'rifi quyidagicha keltirilgan: moliyaviy lizing kelishuvlarida, bir tomondan, lizing beruvchi, ikkinchi tomondan, lizing oluvchi bildirgan tasnif va shartlar asosida, uchinchi tomondan, mol yetkazib beruvchi bilan yetkazib berish to'g'risida kelishuvga ko'ra, lizing beruvchi ishlab chiqarish vositalarini yoki boshqa uskunalarni sotib oladi va lizing oluvchi bilan lizing kelishuvi tuzish asosida, unga lizing to'lovlari to'lab turish evaziga, uskunalaridan foydalanish huquqini beradi.


⁷ A.Uzoqov, N.Kenjayeov, "Investitsiyalarni tashkil etish v moliyalashtirish", T.: "Iqtisod-moliya"2007. 195 b.

Operativ lizing - lizing beruvchi mulkni sotib olib, uni lizing predmeti sifatida belgilangan to'lov hisobiga, shartnomada belgilangan ma'lum bir muddatda tegishli shartlar asosida vaqtinchalik egalik qilish va foydalanishni lizingga oluvchiga beradi. Operativ lizingda lizing predmeti uni to'liq amortizatsiya muddati o'tib bo'lgunga qadar bir necha marotaba lizingga berilishi mumkin (1.2.2 - rasm).



Qaytariluvchi lizing - moliyaviy lizing turi bo'lib, bunda lizing predmeti sotuvchisi bir vaqtning o'zida lizing oluvchi sifatida namoyon bo'ladi. Qaytariluvchi lizing ikki tomonlama lizing kelishuvining ko'rinishidir (bunda sotuvchi va lizing beruvchi bir shaxs bo'ladi). Qaytariluvchi lizingda, uskunalarga ega bo'lgan, lekin ishlab chiqarish faoliyati uchun yetarli mablag'i bo'lmagan korxona o'z mulkini lizing kompaniyasiga sotadi, u esa o'z navbatida ushbu uskunalarni shu korxonaning o'ziga lizingga beradi. Lizing shartnomasiga ko'ra, tegishli muddat o'tgach, korxona o'z uskunalarini sotib olib, unga egalik huquqini qaytarib oladi (1.2.3-rasm).

1.2.2 – rasm. Operativ lizing sxemasi⁸



⁸ A.Uzoqov, N.Kenjayeov, "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish", T.: "Iqtisod-moliya" 2007. 196 b.

1.2.3-rasm. Qaytariluvchi lizing⁹

1. Lizing obyektini sotib olish haqidagi shartnomaning tuzilishi. 2. Lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasida lizing shartnomasining tuzilishi.
3. Lizing to'lovlarining to'lanishi.
4. Mulkka egalik huquqining lizing beruvchidan lizing oluvchiga o'tishi (lizing to'lovlari to'liq amalga oshirilganidan keyin).

1. 3.O'zbekistonda lizingni rivojlantirish yo'llari va muommolari

O'zbekiston respublikasida lizing xizmatlarini yanada rivojlantirish va tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining «2011 — 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida» 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-son qaroriga muvofiq hamda lizing faoliyatini yanada takomillashtirish, moliya bozori infratuzilmasi institutlarini mustahkamlash va bankdan tashqari moliya xizmatlari ko'rsatish sohasida raqobatbardoshlikni rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi¹⁰:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy bank, Iqtisodiyot vazirligi hamda boshqa vazirliklar va idoralarning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligini lizing xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish

⁹ O'zb. R.savdo - sanoat palatasi, O'zb. Banklar assotsiatsiyasi Baraka universal lizing komp. «Lizing... bu nima?» Tadbirkorlar uchun o'quv qo'llanma, T.:O'zbekiston, 2006,12-13 b.

¹⁰ (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 y., 20-21-son, 203-modda)

bo'yicha vakolatli organ etib belgilash va unga quyidagi funksiyalarni yuklash to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin:

- lizing xizmatlari ko'rsatish sohasida regulativ bazani va milliy standartlarni ishlab chiqish;
- lizing xizmatlari ko'rsatish sohasidagi axborotlarni to'plash va umumlashtirish, shuningdek bozorning holatini tahlil qilish;
- lizing xizmatlari sohasida, shu jumladan xalqaro normalar va standartlarni tahlil qilish asosida islohotlarni yanada chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash yuzasidan takliflar kiritish;
- lizing xizmatlari ko'rsatish sohasida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va kiritish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshirish.

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tuzilmasida markaziy apparatning boshqaruv xodimlari cheklangan sonini ko'paytirgan holda shtatdagi xodimlar soni ikki nafar bo'lgan lizing faoliyatini muvofiqlashtirish sho'xbasi tashkil etilsin.


3. Belgilansinki, lizing xizmatlari ko'rsatish sohasida axborot to'plash, umumlashtirish va tahlil qilish statistika organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar asosida Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Moliya vazirligi bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning lizing faoliyati bo'yicha statistika hisobotini qayta ko'rib chiqsin va zaruriyat bo'lganda belgilangan tartibda joriy etsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston lizing beruvchilar uyushmasi, Markaziy bank, Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda Vazirlar

O'zbekistonda lizing beruvchi tashkilotlar

■ Banklar ■ Lizing kompaniyalari ■ Boshqa tashkilotlar



Lizing – korxonalarni modernizatsiya qilish va ularning negizida Mahkamasiga qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida takliflar kiritsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari R.S. Azimov zimmasiga yuklatilgan.

Taraqqiyotning samarali mexanizmi lizing sifatida


Bugungi kunda O'zbekistonda 87 lizing beruvchi tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Ularning 23 tasi banklar, 46 tasi lizing kompaniyalar va 18 tasi boshqa tashkilotlardir.

raqobatbardosh ishlab chiqarishni tashkil etish uchun mablag' sarflashning samarali mexanizmidir. Taqdim etilgan soliq imtiyozlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning unga bo'lgan qiziqishining ortishi O'zbekistonda lizingni jadal rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

O'zbekiston lizing beruvchilar uyushmasi bosh direktori Z.Mustafoevning aytishicha, joriy yilning birinchi yarmida mamlakatimiz lizing xizmatlari bozorida umumiy qiymati 252 milliard so'mdan ziyod 2,5 mingdan ortiq shartnoma

imzolangan. Hisobot davrida lizing operatsiyalarining umumiy portfeli bir trillion 373 milliard so‘mni tashkil etdi. Bunda o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish 12 foizdan oshdi.

Qishloq xo‘jalik texnikasi lizingga berilayotgani va joriy yilning birinchi yarmida jami lizing shartnomalari tarkibida uning ulushi 35,5 foizni tashkil qilgani ta’kidlandi. Barcha shartnomalarning 31,9 mda ustuvor yo‘nalishlar belgilandi.



II-BOB .“Taxos” xususiy korxonasining tashkiliy-iqtisodiy tasnifi va iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili

2.1. «Taxos» xususiy korxonasining tashkiliy-iqtisodiy tavsifi

“Taxos” xususiy korxonasi 2009 yilda tashkil topgan bo‘lib, Uzbekiston Respublikasi Andijon viloyati Adliya boshqarmasi tomonidan 2009 yil 7 sentyabr kuni ro‘yxatdan o‘tkazilgan va № 132 –sonli guvohnoma berilgan.

Korxona manzili - Andijon viloyati, Andijon tuman Mustaqillik ko‘chasi, 72uy

«Taxos» xususiy korxonasi yuridik shaxs hisoblanib, o‘z faoliyatini amalga oshirishda amaldagi qonunchilikka xamda me‘yoriy xujjatlarga rioya qiladi.

Korxonaning asosiy faoliyati – paxta tolsaini qayta ishlab chiqarish xamda trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish; tikuvchilik; to'quvchilik bo'lib, shu bilan bir qatorda amaldagi qonunchilik doirasida xo'jalik faoliyatini amalga oshirish va belgilangan tartibda foyda olishg uchun quyidagi faoliyat turlari bilan ham shugullanadi:

- chakana va ulgurji savdo bilan shugullanish, tijorat, vositachilik ishlarini olib borish;
- eksport – import faoliyatini amalga oshirish;
- engil sanoat mahsulotlari – tikuvchilik, to'quvchilik (trikotaj matosi) ishlab chiqarish, bo'yash va sotish;
- kompleks qurilish – montaj va ta'mirlash ishlarini bajarish, santexnika, elektr tizimlarini ta'mirlash va montaj qilish;
- zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarish, olib kelib sotish, qayta ishlab sotish;
- yordamchi xom – ashyolar ishlab chiqarish va pullik xizmatlar ko'rsatish;
- mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, yetishtirilgan meva sabzavotlarni, poliz va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlab berish, sotish;
- chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash va go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- O'zbekiston Respublikasi xududida va chet ellarda marketing xizmati faoliyatini amalga oshirish;
- xorijiy va maxalliy investitsiyalarni jalb qilib, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish;
- korxona qoshida o'quv markazi tashkil qilish;
- extiyojidan ortiqcha asosiy vositalarni ijaraga berish, sotish, zarur xollarda ijaraga olish;

- transport xizmatlarini qursatish;
- chorvachilik, baliqchilik, va parrandachilik mahsulotlari yetishtirish, qayta ishlash va sotish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunida belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy aloqalar o'rnatish, xorijiy korxona va tashkilotlar bilan xamkorlikda ish olib borish, korxona filiallarini tashkil qilish;
- Qonun bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanish.

Hozirgi kunga kelib ishchi xizmatchilar soni 145 nafardan ortiq. Bugungi kunda korxonaning asosiy faoliyati kalava ip va trikotaj mahsulotlari: bolalar, ayollar va erkaklar uchun futbolkalar, garniturlar va x.k. lar ishlab chiqarish va sotishdir.

«Taxos» xususiy korxonasiining Nizom fondi mikdori 1532122,04 AQSH dollarini tashkil etadi

Korxonaning yer maydoni 1,44 gektarni tashkil etib, shu jumladan 0,59 gektari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Korxona 3 ta ishlab chiqarish binolari (tsexlar), ombor, ma'muriy binolarga ega. Asosiy fondlar va aylanma mablaglar, mulkka egalik xukuki bilan ta'sisчилarga tegishli bulgan boshqa moddiy va nomoddiy mablaglar korxona mulkini tashkil etadi.

O'z vazifalarini amalga oshirish uchun korxona amaldagi qonunchilikka muvofiq quyidagi xuquqlarga ega:

- shartnomalar tuzish, bitimlar tuzish xamda boshqa yuridik xarakatlarni, shu jumladan kredit va balans amallarini bajarish, suda va arbitrajda da'vogar va javobgar sifatida qatnashish;
- amaldagi qonunlarga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasida binolar, inshootlar, transport va ko'chmas mulkni sotib olish va boshqagao'utkazish, ijaraga olish va topshirish;
- pul bilan o'zini-o'zi tahminlash, valyuta bilan o'z xarajatini o'zi qoplash zarurligini hamda vujudga kelayotgan bozor konyunkturasini e'tiborga olib, ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlarga so'm va xorijiy valyutada narxlarni mustaqil belgilash;
- amaldagi qonunlarga muvofiq aktsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish;
- xalqaro yarmarkalarda ishtirok etish, shuningdek, ixtisoslashga ko'rgazmalarda qatnashish;
- xuquqiy shaxslarga qonunda belgilab qo'yilgan boshqa xuquqlardan foydalanish.

Korxona o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan fondlarni tuzadi.

Hozirgi kunda korxonada

- ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi;
- moddiy rag'batlantirish fondi;
- zahira fondi

tashkil etilgan bo'lib, korxona ixtiyorida qoladigan foydani taqsimlash ta'sischilar tomonidan belgilanadi.

KORXONANING NIZOM FONDI TA'SISCHILARNING QO'SHIMCHA ULUSHLARI YOKI KORXONANING FOYDASI HISOBIGA KO'PAYTIRILISHI MUMKIN. QO'SHIMCHA ULUSHLAR PUL, QIMMATLI QOGOZLAR, MULK YOKI NOMODDIY TARZDA

QO'SHILISHI MUMKIN.

«Taxos» xususiy korxonasida ishlab chiqarish jarayonlarida zamonaviy asbobuskunalardan foydalanilmoqda. Barcha texnologik asbob – uskunalar xorijiy mamlakatlar – Germaniya, Belg'giya, Xitoydan sotib olingan bo'lib, ular 2005 yildan 2008 yil oraligida ishlab chiqarilgan.

2009 yilda korxona ish boshlagan bo'lsa, avval faoliyat yuritib kelayotgan va ta'sischi-lardan biri bo'lgan Andijon ip-gazlama to'quv XJ moddiy-texnika bazasi tubdan yangilandi. Agar avval bu yerda tayyor xom ashyodan mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, hozirda ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xom – ashyoni ichki imkoniyatlardan foydalangan xolda korxona o'zi ishlab chiqarmoqda. Buning asosiy sababi – korxonaga jalb etilgan xorijiy texnologiyalardir. Bu esa o'z navbatida korxonaning eksport salohiyatini oshirishga olib keldi.

Boshqaruv ilmi va amaliyotidan ma'lumki, korxona va tashkilotlarni boshqarish samaradorligi, ular faoliyatining samarali tashkil etilishi ko'p jihatdan boshqaruv tuzilmalari qay darajada o'zgaruvchan tashqi muhitga moslasha olishiga bog'liqdir. Chunki aynan boshqaruv strukturasi boshqaruv funktsiyalarini, vakolat va mas'uliyatni taqsimlanishini, rasmiy va norasmiy bog'lanishlarni belgilaydi.

Tadqiqotlarimiz ob'ekti bo'lgan «Taxos» xususiy korxonasining boshqaruv strukturasi va boshqaruv mexanizmini o'rganilganda quyidagilar ma'lum b'ldi (2.1.1 - chizma).

Korxona xususiy mulk asosida tashkil bo'lganligi sababli uning ta'sischi-lari yig'ilishi boshqaruvning oliy organi hisoblanadi. Tahsischilar yig'ilishi 1 yilda kamida 1 marta chaqirilib, korxona faoliyatining asosiy masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish xuquqiga ega.

Yig'ilishning alohida vakolatlariga quyidagi masalalar kiradi:

- korxona Nizomini o'zgartirish;
- korxona faoliyatini asosiy yo'nalishlarini belgilash, uning rejalari va ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlash;
- korxona ichidagi munosabatlarni belgilab beruvchi me'yoriy xujjatlarni tasdiqlash;
- bo'limlar va filiallarni, korxona ishtiroki bilan qo'shma korxonalarni tashkil etish to'g'risida qarorlar qabul qilish;


- foydalarni taqsimlash, ko'rilgan zararni qoplash tartibini, fondlar tuzish va ulardan foydalanish tartibini belgilash;
- tuzilgan shartnomalarni tasdiqlash;
- Korxona faoliyatini tugatish Bilan bogliq masalalar.

Ta'sischilar yig'ilishlari orasida joriy faoliyatga rahbarlikni yig'ilish tomonidan saylangan Kuzatuv kengashi amalga oshiradi. Ta'sischilar yig'ilishida tayinlangan korxona Bosh direktori Kengashga hisobot beradi. Bosh direktor korxonaning rahbari sifatida uning nomidan ishonch kogosiz ish yuritadi. Uning manfaatlarini ifodalaydi, korxonaning pul mablag'larini xamda boshqa mol – mulkini tasarruf etadi, shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalari tuzadi, ishonchnomalar beradi, banklarda hisob varaqlari ochadi, shtatlarni tasdiqlaydi, xususiy korxonaning barcha xodimlari uchun bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi.

Bevosita ishlab chiqarish faoliyatiga rahbarlik qiluvchi sex boshliqlari asosiy ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish va uning samaradorligini ta'minlash masalalari Bilan shugullanadilar.

Bosh hisobchi korxona faoliyatining moliyaviy ta'minotini, hisob yuritish va hisobot berish, o'zaro hisob – kitoblarni amalga oshirish, mehnatga xaq to'lash kabi ko'plab masalalarni xal qilish uchun javobgardir.

Korxonaning barcha bo'lim boshliqlarni uo'lariga belgilangan faoliyat uchun tula javobgar bo'lib, korxona nomidan mustaqil ish yuritadilar va uning vakili sifatida shartnomalar tuzadilar, ishonchnomalar oladilar, banklardagi aloqa qilgan tashkilot va fuqarolar bilan hisob – kitoblarga to'liq javob beradilar, ishlab chiqarish



2.1.1- chizma. «Taxos» xususiy korxonasining boshqaruv strukturasi

va xizmat turlarini eng maqbul, zamonaviy fan – texnika yutuqlari va milliy an’analarga sodiq xolda tashkil etadilar.

Hamma binolar va inshootlar ishchi holatda. Uch xil yong’inni o’chirish uchun – gazli, kukunli va suvli qurilmalar o’rnatilgan. Yong’inni o’chirish qurilmalari Respublika ichki ishlar yong’inni o’chirish bo’limi xodimlari tomonidan o’rganilganda yong’inni o’chirishning barcha tarmoqlari ishga yaroqli ekanligi isbotlandi.

«Taxos» xususiy korxonasining boshqaruv strukturasi chiziqli –funktsional printsip bo’yicha tashkil etilgan. Bunda chiziqli boglanishlar yuqoridan quyiga qarab vakolatlarni uzatish, bo’ysinuvchilarga buyruq va ko’rsatmalar berish xuquqini beradi, funktsional boglanishlar esa ma’lum yo’nalishlar bo’yicha tartibga soluvchi, tavsiyaviy vakolatlar beradi.

Sifatli mahsulot chiqarish sharti bilan hozirda to’quv va pardozlash fabrikasi mahsulotlarini 80 foizini sotishga SHvetsariyaning “Lemano Treyding Komponi S.A” firmasi bilan shartnoma imzolangan.

Pardozlash fabrikasining ishlab chiqarish quvvati 6,0 mln. p/m dan ortiqroq gazlamani oqartirish va bo’yash imkoniyatiga ega.

Korxona boshqaruv strukturasi yakkaboshchiik printsipi xamda boshqarilish me’yoriga rioya etilgan xolda tashkil etilgan. Vazifa, funktsiya va vakolatlar taqsimotini ko’rib chiqadigan bo’lsak, strukturada marketing bo’limi yukligi ko’zga tashlandi, bu esa bugungi kunning eng muhim vazifalaridan hisoblangan bozorni o’rganish masalalariga yetarli darajada e’tibor berilmayotganini ko’rsatadi.

«Taxos» xususiy korxonasi faoliyatini baholash va innovatsion faolligini oshirish orqali uning tijoriy muvaffakiyatini ta’minlash yo’llarini aniqlash uchun korxonaning asosiy texnik – iqtisodiy ko’rsatkichlarini o’rganib chiqish zarur.

2. 2.“Taxos” xususiy korxonasining ishlab chiqarish xo’jalik faoliyatiga iqtisodiy baho

Hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida iqtisodiy salohiyatni mustahkamlash, raqobatbardoshlikni oshirish vazifalari yanada dolzarblik ahamiyatini kasb etmoqda. Bu vazifalar respublikamiz rahbariyati va hukumati tomonidan ishlab chiqilgan «O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo’ljallangan Harakatlar Strategiyasi» xamda «Iqtisodiyotning real sektori korxonalari faoliyatini anada qo’llab-quvvatlash choratadbirlari»da aniq belgilab berilgan. Ushbu tadbirlarning muvaffaqiyati iqtisodiy tizimining quyi bo’g’inida faoliyat yuritayotgan sub’ektlarning ishlab chiqarish va boshqarishning ilgor usullarini qo’llash asosida samaradorlikni oshirishlariga bog’liq.

Ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish korxonalarning texnik – iqtisodiy potentsialidan foydalanish darajasini belgilaydi, mahsulot ishlab chiqarish muddatlari va xajmiga tahsir ko’rsatadi, ishlovchilarning mehnat unumdorligi va mahsulot sifatini oshirishga asos bo’ladi.

Bozor munosabatlarining asosiy shartlaridan biri – mulkni xususiylashtirishdan maqsad, undan foydalanish samaradorligini keskin oshirish asosida mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish xajmi va turini oshirishdir. Bunda mulkka munosabat o’zgarishi, mulkni asrash, undan samarali foydalanish, mehnat unumdorligini oshirishga katta omil bo’ladi. Ayniqsa, mamlakatimiz iqtisodiyotida alohida o’rin tutayotgan xususiy korxonalarda ishlab chiqarish va boshqarishni tashkil etish darajasining yukoriligi ulardagi ilgor tajribalarni o’rganib, ommalashtirishga asos bo’ladi. Biz ham «Taxos» xususiy korxonasida ishlab chiqarish va xo’jalik faoliyatining samaradorligini tahlil qilish uchun korxonaning asosiy texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlarini o’rganib chiqdik. Bunda mahsulot ishlab chiqarish, sotish, mehnat resurslaridan foydalanish, moliyaviy natijalar kabi ko’rsatkichlar o’rganildi (2.1-

jadval). «Taxos» xususiy korxonasi asosan xorijda ishlab chiqarilgan zamonaviy dastgoxlar bilan jixozlangan bo'lib, paxta tolasidan yuqori sifatli kalava ip ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Ishlab chiqarilgan mahsulotni 90 % dan yuqori qismi eksport qilinadi, qolgan qismi ichki bozorda sotiladi.

2.2.1-jadval mahlumotlariga asosan «Taxos» xususiy korxonasi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, korxonaning sof foydasi 2017 yil 2015 yilga nisbatan 16 mln. 550 ming so'mga yahni 110,9%ga oshgan. 2017 yilda 2016 yilga nisbatan esa 30 mln. 185 so'mga ya'ni 84,8% ga kamaygan. Korxonada 2017 yil mahsulot sotishdan tushgan tushumlar 2015 yilga nisbatan 2 mlr. 579 mln. 814 ming so'm (87,4%)ga kamaygan. 2017 lda 2016 yilga nisbatan esa 2 mld 84 mln. 227 mng so'mga(133,1%) ortmoqda.

Korxonada mahsulot tannarxi 2017 yilda 2015 yilga nisbatn 3 mlr. 137mln. 604 ming so'mga yahni 83,4 % ga ortgan. 2016 yilga nisbatan esa 1mlr. 597 mln. 166 ming so'mga ko'paygan. Ishchilar soni 2017 yilda 258'kishiga yetgan bu esa 2015 yilga nisbatan 2 kishiga (100,8%), 2016 yilga nisbatan esa 8 (103%) kishiga ko'paygan.

Mehnat unumdorligi esa 2017 yilda 2015 yilga nisbatan 173 mln. 120 ming 300 so'mga yahni 86,7 % ga ortgan. 2016 yilga nisbatan esa 6 mln.114 ming 700 so'mga yahni 109,6 % ga ko'paygan. Davr xarajatlari miqdori 2015 yilga nisbatan 1 mlr. 71 mln. 987 ming so'mga ya'ni 190,3%ga oshgan. 2016 yilga nisbatan 575 mln 30 ming so'mga ya'ni 134,2%ga oshgan.

Korxona 2017 yili mahsulot sotishdan yalpi foydani 2015 yilga nisbatan 557 mln. 790 ming so'm yahni 135%ga oshirgan. 2016 yilga nisbatan 487mln.61 ming so'mni 134,9%ni tashkil etgan.

Bu ko'rsatkichlar orkali korxona 2016 yil sof foyda miqdorini oshirishga erishgan. 2017 yilda esa 2016 yilga nisbatan kamaygan.Korxona sof foyda miqdorini

bundan ham yuqori darajaga yetkazishi uchun mahsulot sotishdan tushadigan tushumlarni oshirishi va davr xarajatlari miqdorini kamaytirishi lozim.

Korxonaning rentabellik ko'rsatkichi 2017 yilda 1,06 % tashkil etib, 2015 yilga nisbatan 2,26 % ga ko'paygan. 2016 yilga nisbatan esa 0,3 % kamaygan.

Balans—korxona mablag'lari va qoplash manbalarining ma'lum davrdagi holatini ko'rsatadi. Hisob-kitob ishlarini xalkaro an'anaviy talablar bo'yicha yuritishga oz bo'lsada yaqinlashtirilishi hamda 1997 yilda joriy qilingan va korxonalar tuzadigan yangi buxgalteriya balansi bozor iqtisodi sari qo'yilgan dastlabki qadam bo'lgan edi. Mazkur balans yillar davomida amaliyotda qo'llanildi va uni takomillashtirish va xalkaro standartlarga yanada moslashtirish zaruriyati tug'ildi. SHu sababli ham 2017 yilda yangi schyotlarga asoslangan moliyaviy hisobot shakllari, jumladan, buxgalteriya balansi ham qabul qilindi. Bugungi kunda mazkur balans amalda keng qo'llanilmoqda.

Balans ma'lumotlarida ishlab chiqarishni uzluksiz olib borish uchun zarur bo'lgan va hisobot tuzish davriga qiymat shaklidagi mol-mulki hamda uni qoplashga jalb qilingan manbalari o'z aksini topadi. Bu ko'rsatkichlar mol- mulk

hajmi, tarkibi va qiymatini qay darajadaligini ifodalaydi. Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida korxona buxgalteriya balansi tahlilini ko'rib chiqamiz.

2.1.2-jadval mahlumotlaridan kelib chiqib korxona balansini tahlil qiladigan bo'lsak korxona aktivlari miqdori 2017 yil 2015 yilga nisbatan 4 mlr. 398 mln. 318 ming sumga yahni 35,9%ga oshgan.

Korxona tarkibidagi uzoq muddatli aktivlarga ehtibor qiladigan bo'lsak, asosiy vositalarning boshlag'ich (qayta tiklash) qiymati 2017 yil 2015 yilga nisbatan 180 mln. 523 ming so'm (6,8%)ga oshgan. Asosiy vositalarning eskirish summasi 109 mln. 347 ming so'mga ya'ni 18,8%ga oshgan. Korxona tarkibidagi uzoq muddatli investitsiyalar miqdori 2017 yilga kelib 2015 yilga nisbatan 3 mln so'mga kamaygan.

Korxonaning joriy aktivlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, TMZlar miqdori 2017 yil 2015 yilga nisbatan 9mlr. 842 mln. 583 ming so'mga ko'paygan yani 2 martaga, tayyor mahsulot miqdori 1 mlr. 467 mln. 645 ming so'mga oshgan.

2.1.2-jadval

“Taxos” xususiy korxonasi buxgalteriya balansi tahlili (ming so'mda)

№	Ko’rsatkichlar nomi	2015y	2016 y	2017 y	Farki (2017 yil 2015yilga nisbatan)	
					So’ m	%
	Aktivlar					
	1. Uzoq muddatli aktivlar					
	Asosiy vositalar:					
1	Boshlang’ich (qayta tiklash) qiymati (0100, 0300)	2658566	2764868	2838619	180053	106,8
2	Eskirish summasi (0200)	580133	711950	689480	109347	118,8
3	Koldik (balans) qiymati	2078433	2052918	2149139	70706	103,4
4	Uzoq muddatli investitsiyalar, jami shu jumladan:	42918	42918	39918	-3000	93
5	Qimmatli qog’ozlar (0610)	42918	42918	39918	-3000	93
6	1-bo’lim bo’yichajami:	2121351	2095836	2189057	67706	103,2
	2. Joriy aktivlar					
7	Tovar material zahiralar, jami	9754450	12391649	13597033	9842583	2mar
8	Ishlab chiqarish zaxiralari (1000,1100,1500,1600)	8633633	11637658	11008571	2374938	127,5
9	Tayyor mahsulot (2800)	1120817	753991	2588462	1467645	2,3mar
10	Kelgusi davr xarajatlari (3100)	210301		221464	11163	105,3
11	Debitorlar, jami	32626	128359	160617	127991	4,4mar
12	Xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi)			504	504	
13	Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo’yicha qarzi (4700)		83736	142355	142355	
14	Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	32626	44623	17758	-14868	54,4

15	Pul mablag' lari, jami shu jumladan:	343461	457661	482035	138574	140,3
16	Kassadagi pul mablag'lari (5000)	5	14	8	3	160
17	Hisoblashish schyotidagi pul mablag'lari (5100)	343456	457647	482027	138574	140,3
18	1-bo'lim bo'yicha jami:	10130537	12977669	14461149	4330612	142,7
19	Balans aktivi bo'yicha jami	12251888	15073505	16650206	4398318	135,9

	Passiv					
	I. Uz mablag'lari manbalari					
20	Ustav kapitali (8300)	623435	623435	623435	0	0
21	Rezerv kapitali (8500)	932425	994905	945107	12682	101,4
22	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	151579	198332	168147	26568	117,5
23	Maksadli tushumlar (8800)	288115	2710027	2746770	2458655	9,5mar
24	Kelgusi davr xarajatlari va 53,1 to'lovlari uchun zaxiralar (8900)	235919	125376	125376	-110543	
25	1- bo'limbo'yicha jami	2231491	4652075	4483459	2251968	2mar
26	Joriy majburiyatlar jami	10020397	10421431	1216674	2146350	121,4
27	shu jumladan: joriy kreditorlik	10020397	10358930	71216674		
	2146350 121,4 qarzlar	0	7			
28	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000)	947627	1276968	1429588	481961	150,9
29	SHo'hba va karam xo'jalik jamiyatlarga qarz (6120)	2241773	3272667	5738916	3497143	2,6mar
30	Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	6248342	5614590	4039687	-2208655	64,4
31	Byudjetga to'lovlar bo'yicha	94001	26240	519787	425786	
	5,5mar qarz (6400)					

32	Maksadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz (6520)	387622	18778	107805	-279817 27,8
33	Tahsischilarga bo'lgan qarzlar (6600)		2386	2386	2386
34	Mexnatga xak to'lash bo'yicha 97834 5,4mar qarz (6700)	23074		73690	120908
35	Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)		62500	62500	62500
36	Boshqa kreditorlik qarzlar (6950 dan tashqari 6900)	77958	73611	210056	132098 2,7mar
37	2-bo'lim bo'yicha jami:	10020397	10421430	1216674	2146350 121,4
38	Balans passivi bo'yichajami	12251888	15073505	71665020	439818 135,9

2.1.3-jadval

**“Taxos” xususiy korxonasi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti
tahlili (ming so'm)**

№	Ko'rsatkichlar nomi	2015		2017 y		Farqi (2017 yil 2015 yilga nisbatan)	
		D	X	D	X	Daromad Lar	Xarajat lar
1	Mahsulot (ish,xizmat) sotishdan sof tushum	20496450		17916636		-2579814	
2	Sotilgan mahsulotlarning tannarxi	18901444			15763840		-3137604
3	Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan yalpi foyda	1595006		2152796		557790	
4	Davr xarajatlari, jami		1178496		2259483		1080987
5	Sotish xarajatlari		81506		116548		35042
6	Mahmuriy xarajatlar		38150		327484		289334
7	Boshqa operatsion xarajatlar		1058840		1815451		756611
8	Asosiy faoliyatnin gboshqa daromadlari	39283		2175		-37108	

9	Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	416510			104512		-311998
10	Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami			529527		529527	
11	Dividendlar shaklidagi daromadlar			11		11	
12	Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari			529516		529516	
13	Moliyaviy aoliyat bo'yicha xarajatlar		221035		156648		-64387
14	Foizlar shaklidagi xarajatlar		221035		156648		-64387
15	Umumxo'jalik faoliyatning foydasi (zarari)	195475		268367		72892	
16	Daromad (foyda) soligi tulangunga kadar foyda(zarar)	195475		268367		72892	
17	Daromad (foyda)dan soliq		30696		85599		54903
18	Foydadan boshqa soliqlar va yigimlar		13182		14621		1439
19	Hisobot davridagi sof foyda (zarar)	151597		168147		16550	

Korxona joriy aktivlar miqdori 2015 yili 10 mlr. 130 mln. 537 ming so'mni tashkil qilgan bo'lib bu ko'rsatki 2017 yilga kelib 14 mlr. 461 mln. 149 ming so'mga yetgan. Bundan ko'rinib turibdiki korxona joriy aktivlari 2017 yilga kelib 4 mlr. 330 mln. 612 ming so'mga ko'paygan.

Korxona balansi passiviga ehtibor qiladigan bo'lsak jadval mahlumotlariga asosan shuni aytish mumkinki, balans passivi 2017 yil 2015 yilga nisbatan 439 mln. 818 ming so'm yahni 35,9% ga oshgan. Korxonaning taksimlanmagan foydasi, rezerv kapitali mos ravishda 2017 yil 2015 yilga nisbatan 26 mln. 568 ming (17,5%) va 12 mln. 682 ming (1,4%) so'mga oshganligini ko'rish mumkin. Korxonada maqsadli tushumlar miqdori 2017 yilga kelib 2 mlr. 458 mln. 655 ming so'mga yahni 2015 yilga nisbatan 9,5 marta oshgan. Undan tashqari korxona soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar, maksadli davlat jamgarmalariga

to'lovlar bo'yicha qarzlarni 2017 yilga kelib kamaytirishga erishdi, yahni mos ravshda 2 mlr. 208 mln. 655 ming sum va 279 mln. 817 ming so'mga kamaygan. Bu 2015 yilga nisbatan 35,4% va 72,2% kamaygan.

Korxonada 2017 yilga kelib 2015 yilga nisbatan joriy majburiyatlar 2 mlr. 146 mln. 350 ming so'm (21,4%)ga, mol yetkazib beruvchi va pudratchidarga bo'lgan qarz 481 mln. 961 ming so'm (50,9%)ga, shuba va karam xo'jalik korxonalariga kazr 3 mlr. 497 mln. 143 ming so'm (2,6 marta)ga, byujetuga to'lovlar bo'yicha qarz 97 mln. 834 ming (5,4 marta)ga. Bu ko'rsatkichlar korxona faoliyatiga salbiy tahsir ko'rsatgan.

Korxona o'z faoliyati davomida joriy majburiyatlar, mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga bo'lgan qarzlar, shuba va karam xo'jalik korxonalariga bo'lgan qarzlar, byujetga bo'lgan qarzlar miqdorini kamaytirish yo'llarini topishi lozim.

Ushbu balans tahlilidan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, korxona o'z faoliyatini yildan-yilga yaxshilashga erishmoqda.

Korxonalarning moliyaviy holati bu:

- kompleks ravishdagi tushuncha bo'lib, u o'z ichiga keng ko'rsatkichlar tizimini oladi, ular korxonalarning moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligini va ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi; korxonalar faoliyatidagi butun ishlab chiqarish va xo'jalik omillarining xarakati, ularning o'zaro aloqadorlik natijasidir;
- korxonalarning mo'htadil ishlab chiqarish, tadbirkorlik va boshqa faoliyati uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan tahminlanganligi va ulardan samarali foydalanish ifodasidir.

2.1.3-jadval ma'lumotlariga ko'ra korxonaning moliyaviy natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak 2017 yil korxonaning sof foydasi 168 mln. 147 ming so'mni tashkil qilgan. Bu ko'rsatgich 2015 yilga nisbatan 16 mln. 550 ming sumga oshgan.

Bu ko'rsatkichga quyidagi omillar ijobiy va salbiy tahsir ko'rsatgan.

2017 yilda 2015 yilga nisbatan mahsulot sotishdan sof tushum 2 mlr. 579 mln. 814 ming so'mga kamaygan. Bunga mutanosib ravishda sotilgan mahsulot tannarxi ham 3 mlr. 137 mln. 604 ming so'mga pasaygan. Lekin, shunga qaramay sotishdan yalpi foyda 557 mln. 790 ming so'mga oshgan. Bu omil sof foydaning oshishiga ijobiy tahsir ko'rsatgan. Yakuniy moliyaviy natijaga salbiy omil bo'lib, davr

xarajatlarining 1 mlr. 800 mln. 987 ming so'mga oshishi yetarli darajada tahsir qilgan. Bundan tashqari korxonaning yalpi foydasiga boshqa operatsion xarajatlarning 756 mln. 611 ming so'mga oshishi ham yetarli darajada salbiy tahsir ko'rsatgan. Korxonada 2017 yilga kelib asosiy faoliyatdan boshqa daromadlari ko'rsatkichi 2015 yilga nisbatan 37 mln. 108 mln so'mga kamayib ketgan va bu ko'rsatkich ham foydaga salbiy tahsir qilgan. Bularga mutanosib ravishda korxonada 2017 yilga kelib moliyaviy faoliyatning jami daromadlari 2015 yilga nisbatan 529 mln. 527 ming so'mga, umumxo'jalik faoliyatining foydasi 72 mln. 892 ming so'mga oshgan. Korxona 2017 yilga kelib moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar va foiz shaklidagi xarajatlarni 64 mln. 387 ming so'mga kamaytirishga erishgan. Korxonaning hisobot davridagi sof foydasi 2017 yil 16 mln. 550 ming so'mga oshgan.

Demak korxona davr xarajatlari, sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar hamda boshqa operatsion xarajatlarni kamaytirish yo'llarini izlab topishi kerak.

2.3. “Taxos” xususiy korxonasida lizing xizmatlaridan foydalanish taxlili

Lizing yordamida tadbirkor lizing beruvchining pul vositalari bilan yangi ishlab chiqarish binolari va qurilmalarini harid qilgan holda yangi ishlab chiqarish korxonasini yo'lga qo'yishi yoki asosiy texnologik uskunalarni tezkor ravishda yangilab olishi mumkin. Lizing munosabatlari lizing shartnomasini tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi.

U yozma shaklda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuziladi. Agar lizing oluvchi jismoniy shaxs bo'lsa, lizing shartnomasi notarial tasdiqlanadi. Lizing shartnomasida odatda unga imzo chekilishi bilan, har oy, har yarim yilda

to'lanadigan to'lovlar o'z aksini topadi. To'lov muddatlari lizing foydalanuvchisining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilanishi ham mumkin.

Lizing shartnomasining muddati tugagach, ijaraga olingan mulk ijaraga beruvchiga qaytariladi. Lekin, ko'p hollarda lizing shartnomasi ijaradan foydalanuvchiga mulkni sotib olish yoki qaytadan lizing shartnomasini yangilashni, ya'ni qaytadan shartnomani tuzish imkoniyatini beradi.

«Lizing to'g'risida»gi Qonunning 9-moddasiga binoan quyidagilar lizing shartnomasining muhim shartlaridan iborat:

- lizing obyektining tavsiflanishi (lizing obyektining miqdori, sifati, ro'yxati, kontrakt qiymati va boshqa ko'rsatkichlar) va shartnoma umumiy pul summasining ko'rsatilishi;

- taraflarning lizing obyektini olish va berish bilan bog'liq majburiyatlari,
- lizing obyektini berish tartibi, shu jumladan, lizing obyektini

yetkazib berish, montaj qilish va foydalanishga topshirish tartibi;

- lizing to'lovlarini to'lash shartlari, miqdorlari, muddatlari va tartibi;
- lizing obyektidan foydalanish, unga qarash, uni saqlab turish va ta'mirlash yuzasidan taraflarning majburiyatlari;
- shartnomaning amal qilish muddati.

Taraflarning kelishuviga binoan lizing shartnomasiga quyidagi shartlar kiritilishi mumkin:

- lizing obyektini (moliyaviy lizingda) sotib olish tartibi va muddatlari; lizing shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish;
- lizing obyektini sug'urta qilish;
- fors-major holatlar;
- lizing beruvchi qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishi, bunday xizmatlarsiz lizing obyektidan foydalanib bo'lmasa;

- lizing subyektlari tomonidan lizing shartnomasi shartlariga rioya etilishini nazorat qilish tartibi.
- Lizing shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish, agar qonun hujjatlarida va shartnomada boshqa tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, taraflar kelishuviga binoan amalga oshiriladi.

Lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi lizing beruvchi va sotuvchi o'rtasida tuzilib, unga ko'ra lizing beruvchi lizing oluvchining topshirig'iga binoan lizing obyektini keyinchalik lizing oluvchiga berish uchun o'z mulki qilib oladi.

Taraflarning xohishiga ko'ra lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi lizing shartnomasi kuchga kirishishidan oldin yoki keyin tuzilishi mumkin. Xalqaro Konvensiyaga asosan lizing shartnomasining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Mijoz lizing uskunalarini yetkazib beruvchilarni mustaqil ravishda aniqlaydi.

Uskunalar tuzilgan yoki endi tuziladigan va sotuvchiga ma'lum bo'lgan lizing shartnomasi asosida xarid qilinadi.


Lizing uskunalarining lizing shartnomasi asosida hisoblangan to'la yoki katta qismi qiymatining amortizatsiyasini hisobga olgan holda, davriy to'lovlar amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda lizingga berish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi: mol - mulkning xarid qilishga sarflangan mablag'larining qaytarilishi, lizing xizmatlarining to'lovliligi, lizing operatsiyasini ng muayyan muddatga mo'ljallanganligi, lizing to'lovlarining kafolatlanganligi. Lizing jarayonlarining iqtisodiy samarasi ko'p hollarda ularning nechog'lik puxta rasmiylashtirilishiga bog'liq. Lizing shartnomasida uning bajarilishi ketma-ketligini tavsiflovchi 3 ta bosqichni alohida ko'rsatib o'tish mumkin.

2.3.1-rasm.

Lizing jarayonlarining bosqichlari, mohiyati va rasmiylashtirilishi²¹

Bosqichlar	Mohiyati	Rasmiylashtirilishi
Tayyorlash va asoslash	Lizing to'lovini amalga oshirishdagi lizing oluvchining moliyaviy imkoniyatlarini baholash, mahsulotga bo'lgan talab va ijaraga olingan uskunalaridan foydalanishni baholash, tovarning boshlang'ich qiymati, lizing to'lovlari, ularni uzluksizligi, shartnoma davomiyligi, qoldiq qiymati va boshqa jihatlar tahlili	Uskunani sotib olish yuzasidan lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchi taqdim etadigan buyurtma, lizing jarayoni samaradorligi va lizing oluvchining to'lov qobiliyati to'g'risidagi xulosa; lizing beruvchi tomonidan ta'minotchiga boriladigan buyurtma - hujjat; o'tkazish uchun lizing kompaniyasini bankka qarz olish maqsadida yo'llagan buyurtmasi
Huquqiy jihatdan rasmiylashtirish	Lizing bitimini tuzish, zarur hujjatlarni rasmiylashtirish	Lizing jarayonini amalga oshirish uchun qarz berish to'g'risidagi bank va lizing kompaniyasi o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasi; lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi; lizing obyektini foydalanishga topshirishdagi qabul qilish-topshirish dalolatnomasi; lizing shartnomasi
Ijro etilishi	Lizing mulkidan foydalanish, uni butligini saqlash va ishga yaroqli holatini saqlab turishga qaratilgan ishlarni bajarish.	Lizing kelishuvi va uskunalaridan keyinchalik foydalanish munosabatlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish.



2.3.2- rasm. lizingni amalga oshirish bosqichlari

Lizing to'lovlarini amalga oshirish tartibi lizingning o'ziga xos afzalligi hisoblanadi. Lizing shartnomasida barcha taraflarning istagi optimal darajada e'tiborga olinishi mumkin. Lizing beruvchi va lizing oluvchi quyidagilar haqida kelishib olishi mumkin:

- avans to'lovlari;
- lizing to'lovlarining kechiktirilishi;
- lizing to'lovlarining evolyutsion o'sib borishi;
- to'lov hajmining lizing muddati oxiriga borib kamayib borishi; — to'lovlarning boshqa ko'rinishi haqida.

Lizing to'lovlarining shakli lizingga olingan uskunada ishlab chiqarilgan mahsulotlarining sotilishidan kelib tushgan pul mablag'laridan amalga oshirilishi va takomillashtirilishi mumkin. Lizing to'lovlari jadvallarining quyidagi turlari mavjud:

1. Lizing obyekti qiymatini bir tekis to'lash jadvali.

Lizing obyekti narxini bir tekis ravishda to'lash jadvalida marja kattaligi shartnoma amal qilish muddati ichida lizing obyektining birlamchi qiymatiga tenglashtiriladi, keyingi jadvallarda esa marja kattaligi lizing obyektining qoldiq qiymatiga tenglashtiriladi.

Lizing obyekti qiymatini bir tekis to'lov jadvali asosiy qarzni lizing shartnomasi amal qilish muddatiga taqsimlash yo'li bilan hisoblab chiqariladi.

Marja kattaligi quyidagicha aniqlanadi:

$$M = N * P/t$$

Bu yerda, **N** - uskunaning narxi; **P** - marja hajmi (yillik, %); **T** - to'lovlarni amalga oshirilish muddati(chorak, oy...).

Lizing to'lovining ushbu turi barqaror aylanma mablag'iga ega bo'lgan korxonalar uchun qo'llaniladi.

Mazkur lizing to'lovi tizimining afzalligi shundaki, korxona bir tekis lizing to'lovlari bilan o'z moliyaviy faoliyatini rejalashtirayotganda shaxsiy pul

mablag'larini ham rejalashtirib olishi mumkin.

2. Lizing to'lovlarini o'sib borish tartibida to'lash jadvali.

Boshlovchi tadbirkor yoki yangi tashkil qilingan korxonalar uchun o'sib boruvchi lizing to'lovlari jadvali tavsiya qilinadi. Bu uslubda, korxona ishlab chiqarishni to'liq quvvat bilan ishga tushirish yo'lida katta moliyaviy xarajatlar qilayotganligi e'tiborga olinadi. Shuning uchun uskunani qaytarish narxi lizing oluvchi uchun qulay bo'lishi e'tiborga olingan holda hisoblab chiqariladi.

3. Annuitet hisobi uslubiga asoslangan to'lov jadvali.

Jahon amaliyotida ko'pincha annuitet hisob uslubiga asoslangan lizing to'lovlari jadvali ko'proq qo'llanilmoqda. Ushbu jadval lizing oluvchi uchun ham, lizing beruvchi uchun ham samaralidir. Jadvalda lizing to'lovi kattaligi o'zgarmas bo'lib, maxsus formula yordamida hisoblanadigan annuitet koeffitsienti orqali belgilanadi:

$$KA = \frac{1 - (1 / (1 + P/n))^T}{P/n}$$

bu yerda, **KA** - annuitet koeffitsienti; **P** - marja stavkasi, foizlarda olingan;

T-lizing shartnomasi muddatining lizing to'lovlari davriyligiga ko'paytirilgan darajasi, **n** - to'lovlarni amalga oshirilish muddati davri.

Bu holda lizing to'lovi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\text{Lizing to'lovi} = \frac{\text{Lizing obyektining narxi}}{KA}$$

4. To'lovlarning kamayishi uslubidagi to'lov jadvali.

To'lovlarning kamayishi uslubiga asoslangan jadval uskuna tez amortizatsiya bo'ladigan holda qo'llaniladi. Lizing to'lovlaridagi mazkur uslubning qulayligi shundaki, nisbatan qisqa davr ichida lizing obyekti qiymatining katta qismi to'lab bo'linadi.

5. Teng bo'lmagan qismlar bilan to'lash jadvali (o'sish yoki kamayib borish).

Agar ishlab chiqariladigan mahsulot mavsumiy xarakterga ega bo'lsa, tadbirkor uchun lizing to'lovlarining teng bo'lmagan qismlar bilan to'lash jadvali (o'sish yoki kamayib borish) tavsiya qilinadi. Ushbu tizimning lizing oluvchi uchun afzalligi shundaki, to'lovlarning asosiy qismi korxonaning mavsumiy faoliyatidan kelib tushuvchi moliyaviy mablag'lar asosiga rejalashtiriladi. Lizing to'lovlari o'z tarkibiga shartnomada ta'kidlangan mulkning to'la yoki qisman holdagi qiymatini hamda, ko'rsatilgan lizing xizmati va qo'shimcha servis xizmatlari to'lovini oladi. Natijada, lizing beruvchida tijorat nuqtai-nazaridan lizing bitimi quyidagicha ko'rinishda bo'ladi: Lizing beruvchining kelishuv asosidagi umumiy xarajatlari quyidagi tenglik bilan izohlanadi:

$$L_t = B_k + K_t + Q_t$$

bunda, **K_t** – kredit resurslaridan foydalanganlik uchun to'lov, so'mda;

Q_t - qo'shimcha xizmatlar uchun to'lov, so'mda;

B_k – lizing shartnomasi predmeti hisoblangan mulkning balans qiymati, so'mda; Lizing bitimi asosida lizing oluvchining lizing to'lovlari xarajatlari quyidagicha hisoblanadi:

$$L_t = A + K_t + T_{\text{komis}} + Q_t + QQS + BB \text{ bunda:}$$

A - lizing beruvchida joriy yilda hisobga olinadigan

amortizatsiya ajratmalari miqdor o'lchovi, so'mda; **T_{komis}** - lizing shartnomasi asosida lizing beruvchining komission mukofot puli, so'mda; **QQS** – lizing beruvchi xizmatlari bo'yicha lizing oluvchi tomonidan to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i, so'mda;

BB - bojxona boji, so'mda; **K_t** - kredit resurslaridan foydalanganlik uchun to'lov, so'mda;

K_t - qo'shimcha xizmatlari uchun to'lov, so'mda.

O'z navbatida, amortizatsiya ajratmalari quyidagi formula bilan hisoblaniladi:

$$A = \frac{S * N_A}{100}$$

bu yerda: **A** – amortizatsiya ajratmasi summasi;

S – mol - mulkning balans qiymati;

NA – amortizatsiya ajratmasi me'yor.

Kredit resurslaridan foydalanganlik uchun to'lov quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_r = \frac{K * S_k}{100}$$

bu yerda: **K** - kredit resurslar summasi;

Sk - kredit resurslaridan foydalanganligi uchun foiz stavkasi.

Lizing shartnomasi asosida lizing beruvchining komission mukofot puli quyidagicha aniqlanadi:

$$T_{\text{komission}} = \frac{K * S_{\text{komission}}}{100}$$

bu yerda, **Skomis** - komission mukofot puli stavkasi.

K - kredit resurslar summasi;

Qo'shimcha xizmatlar to'lov miqdori asosan quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_t = X_{\text{saf}} + X_{\text{rek}} + X_{\text{boshqa}}$$

bu yerda, **Xsaf** – bank hodimlarining safar xarajatlari; **Xrek** – reklamalar xarajatlar summasi; **Xboshqa** – boshqa xarajatlar summasi.

Lizing beruvchining mulkdan foydalanish xarajatlari lizing to'lovlari asosida to'liq kompensatsiyalanmaydi, ya'ni qoplanmaydi. Kompensatsiya summasi shartnoma muddati va mulk amortizatsiyasi muddatiga bog'liq holda shartnomada oldindan belgilangan bo'ladi. Agar amortizatsiya muddati shartnoma muddatidan oshib ketsa, bunda mulkning amortizatsiya muddati tugashiga qadar lizing beruvchida qoldiq qiymatida o'z mulki bo'lib qolaveradi. Komission mukofot to'lovi lizing beruvchi xarajatlarini qoplash manbai bo'lib xizmat qiladi. Lekin, bu aniq bitim bilan bog'liq emas va foyda manbaini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Davriy lizing to'lovlari hisob - kitobi:

To'lovlarni har chorakda amalga oshirish:

$$L t (\text{har chorakda}) = L t (\text{umumiy}) / 4$$

To'lovlarni har oyda amalga oshirish:

$$L t (\text{har oyda}) = L t (\text{umumiy}) / 12$$

Kelishuv to'xtatilganda hisob - kitoblar quyidagicha amalga oshiriladi:

Kelishuvda ko'zda tutilgan lizing beruvchiga to'lanmagan barcha lizing to'lovlari:

$$Ltm = Lt(\text{umumiy}) - Lh$$

bu yerda: **Ltm** - to'lanmagan lizing to'lovlari; **Lt(umumiy)** - kelishuvda ko'zda tutilgan barcha lizing to'lovlari; **Lh** - haqiqatda to'langan lizing to'lovlari Lizing shartnomasi tugatilgan vaqtda lizing obyektining qoldiq qiymati:

$$Qq = S - A$$

bu yerda: **Qq** - lizing obyektining qoldiq qiymati; **S** - mol-mulkning balans qiymati; **A** - amortizatsiya ajratmasi summasi;

Shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi uchun jarima:

$$J = O'q * (Sk : 100\% + Skomis : 100\%) \text{ bu}$$

yerda, **J** – jarimaning umumiy qiymati;

O'q - Lizing shartnomasi bo'yicha reja muddati tugaganidan to to'liq amortizatsiya qiymatigacha asbob - uskunaning o'rtacha yillik qiymati; **Sk** - kredit resurslaridan foydalanganligi uchun foiz stavkasi;

Skomis - komission mukofot puli stavkasi.

Kelishuvning tugatilish summasi:

$$TK = L t (\text{umumiy}) + Qq$$

bunda, **L t (umumiy)** – kelishuvda ko'zda tutilgan barcha lizing to'lovlari; **Qq** - lizing obyektining qoldiq qiymati; **J** – jarima

“Taxos” xususiy korxonasining «Sifatli xom-ashyo» investitsiya loyihasi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining investitsiya loyihalarini lizing asosida moliyalashtirish mexanizmini o'rganish maqsadida mazkur bitiruv malakaviy ishining tadqiqot obyekti sifatida “Taxos” xususiy korxonasining «Sifatli xom-ashyo» investitsiya loyihasiolindi. Mazkur loyihaning maqsadi, trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish; tikuvchilik; to'quvchilik mahsulotlari turlarini ishlab chiqarishni kengaytirishdan iborat.

Loyiha tashabbuskori bo'lgan korxona investitsiyalash davrida quyidagi masalalarni hal qilishga qaror qildi:

- 1) Andijon viloyati Andijon tumani J.Raximov ko'chasida joylashgan ishlab chiqarish bazasini sotib olish;
- 2) Mahalliy bozorda mahsulotlar sotish doirasini kengaytirish; Jamg'arilgan pul mablag'laridan korxona ishlab chiqarish ehtiyojlari va kelgusida rivojlanishi uchun sarflanishini ta'minlash.

Lizing hisobiga Andijon viloyati Andijon tumani J.Raximov ko'chasida joylashgan **ishlab chiqarish bazasini sotib olish** rejalashtirilgan. Ishlab chiqarish bazasini sotib olish haqida «Slate» MCHJ rahbari bilan tuzilgan shartnoma mavjud.

Sotib olingan mazkur baza asosiy hom ashyoni ishlab chiqarish bazasiga olib kelish transport xarajatlarini keskin kamaytirishga, shuningdek Andijon tumanida qurilishi ishga tushirilayotgan va Andijon shahridagi ishlab chiqarish uchastkalariga xom ashyoni taqsimlash imkoniyatini yaratadi. -Loyihaning ijtimoiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

Ilg'or texnologiyalardan foydalanish orqali ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish;

-Yangi ish o'rinlari yaratilishi;

-O'zbekiston Respublikasi sanoat potentsiali o'sishini ta'minlash; -O'zbekiston Respublikasi byudjetiga soliq to'lovlari va boshqa pul yig'imlarining kelib tushishi.

Lizing shartlari: lizing summasi **3 500 000 000** so'm, lizing muddati: 6 yil, foiz stavkasi yillik 18% , qaytarilish miqdori **5 468 750 000** so'm.

Garov ta'minoti sifatida qo'yilgan obyektlar: **1-obyekt** – “Taxos” xususiy korxonasi Andijon tumanida joylashgan asosiy ishlab chiqarish bazasi, **2-obyekt** - lizing hisobiga sotib olinayotgan Andijon viloyati Andijon tumani J.Raximov ko'chasida joylashgan qo'shimcha ishlab chiqarish bazasi.

Loyihani amalga oshirish muddati (moliyalashtirishdan to lizing to'lovlari to'lash muddati) 7 yilni tashkil etishi mo'ljallanmoqda.

Lizing to'lovlari har chorakda amalga oshiriladi. Quyida Taxos" xususiy korxonasi ma'lumotlari asosida tuzilgan lizing to'lovlari jadvallarining turli xillarini ko'rib chiqamiz: (3.1.1-jadval)

3.1.1-jadval

Lizing obyekt qiymatini bir tekis to'lash jadvali

To'lovlarni amalga oshirish sanalari		Obyektning qoldiq qiymati	Marja, yillik 10%	Lizing obyektining narxining qaytarilishi	Lizing to'lovi
1-yil	1-chorak	3500000000	87500000	145833333,3	233333333,3
	2-chorak	3354166667	83854166,67	145833333,3	229687500
	3-chorak	3208333333	80208333,33	145833333,3	226041666,6
	4-chorak	3062500000	76562500	145833333,3	222395833,3
2-yil	5-chorak	2916666667	72916666,67	145833333,3	218750000
	6-chorak	2770833333	69270833,34	145833333,3	215104166,6
	7-chorak	2625000000	65625000	145833333,3	211458333,3
	8-chorak	2479166667	61979166,67	145833333,3	207812500
3-yil	9-chorak	2333333334	58333333,34	145833333,3	204166666,6
	10-chorak	2187500000	54687500,01	145833333,3	200520833,3
	11-chorak	2041666667	51041666,67	145833333,3	196875000
	12-chorak	1895833334	47395833,34	145833333,3	193229166,6
4-yil	13-chorak	1750000000	43750000,01	145833333,3	189583333,3
	14-chorak	1604166667	40104166,68	145833333,3	185937500
	15-chorak	1458333334	36458333,34	145833333,3	182291666,6
	16-chorak	1312500000	32812500,01	145833333,3	178645833,3
5-yil	17-chorak	1166666667	29166666,68	145833333,3	175000000
	18-chorak	1020833334	25520833,35	145833333,3	171354166,6
	19-chorak	875000000,5	21875000,01	145833333,3	167708333,3
	20-chorak	729166667,2	18229166,68	145833333,3	164062500
6-yil	21-chorak	583333333,9	14583333,35	145833333,3	160416666,6
	22-chorak	437500000,6	10937500,02	145833333,3	156770833,3
	23-chorak	291666667,3	7291666,683	145833333,3	153125000
	24-chorak	145833334	3645833,351	145833333,3	149479166,7
Jami			1093750000	3499999999	4593749999

“Taxos” xususiy korxona ma’lumotlari asosida tuzildi.

Lizing obyektining narxini bir tekis ravishda to'lash jadvalida marja kattaligi (10%) shartnoma amal qilish muddati ichida lizing obyektining birlamchi qiymatiga tenglashtiriladi, keyingi jadvallarda esa marja kattaligi lizing obyektining qoldiq qiymatiga tenglashtiriladi.

Annuitet hisobi uslubiga asoslangan to'lov jadvali

To'lovlarni amalga oshirish sanalari		Obyektning qoldiq qiymati	Marja, yillik 18%	Lizing obyekti narxining qaytarilishi	Lizing to'lovi
1-yil	1-chorak	3500000000	157500000	83954244,42	241454244,4
	2-chorak	3416045756	153722059	87732185,4	241454244,4
	3-chorak	3328313570	149774110,7	91680133,74	241454244,4
	4-chorak	3236633436	145648504,6	95805739,76	241454244,4
2-yil	5-chorak	3140827697	141337246,4	100116998	241454244,4
	6-chorak	3040710699	136831981,4	104622263	241454244,4
	7-chorak	2936088436	132123979,6	109330264,8	241454244,4
	8-chorak	2826758171	127204117,7	114250126,7	241454244,4
3-yil	9-chorak	2712508044	122062862	119391382,4	241454244,4
	10-chorak	2593116662	116690249,8	124763994,6	241454244,4
	11-chorak	2468352667	111075870	130378374,4	241454244,4
	12-chorak	2337974293	105208843,2	136245401,2	241454244,4
4-yil	13-chorak	2201728892	99077800,12	142376444,3	241454244,4
	14-chorak	2059352447	92670860,13	148783384,3	241454244,4
	15-chorak	1910569063	85975607,83	155478636,6	241454244,4
	16-chorak	1755090426	78979069,19	162475175,2	241454244,4
5-yil	17-chorak	15926152571	71667686,3	169786558,1	241454244,4
	18-chorak	1422828693	64027291,19	177426953,2	241454244,4
	19-chorak	1245401740	56043078,29	185411166,1	241454244,4
	20-chorak	1059990574	47699575,82	193754668,6	241454244,4
6yil	21-chorak	866235905,2	38980615,73	202473628,7	241454244,4
	22-chorak	663762276,5	29869302,44	211584942	241454244,4
	23-chorak	452177334,6	20347980,06	221106264,3	241454244,4
	24-chorak	231071070,2	10398198,16	231056046,2	241454244,4
Jami			2294916890	3499984976	5794901866

“Taxos” xususiy korxona ma’lumotlari asosida tuzildi.

Lizing to'lovi kattaligi o'zgarmas bo'lib, maxsus formula yordamida hisoblanadigan annuitet koeffitsienti orqali belgilanadi. 3.1.2-jadvalda lizing to'lovi kattaligi quyidagicha aniqlangan :

$$\text{Lizing to'lovi} = \frac{3\,500\,000\,000}{14.4955} = 241454244,4$$

$$KA = \frac{1 - (1 / (1 + 0.18/4))}{0.18/4} = 14.4955$$

3.1.3 -jadval

To'lovlarning kamayishi uslubidagi to'lov jadvali

To'lovlarni amalga oshirish sanalari		Obyektning qoldiq qiymati	Marja, yillik 18%	Lizing obyektining narxining qaytarilishi	Lizing to'lovi
1-yil	1-chorak	3500000000	157500000	145833333,3	303333333,3
	2-chorak	3354166667	150937500	145833333,3	296770833,3
	3-chorak	3208333333	144375000	145833333,3	290208333,3
	4-chorak	3062500000	137812500	145833333,3	283645833,3
2-yil	5-chorak	2916666667	131250000	145833333,3	277083333,3
	6-chorak	2770833333	124687500	145833333,3	270520833,3
	7-chorak	2625000000	118125000	145833333,3	263958333,3
	8-chorak	2479166667	111562500	145833333,3	257395833,3
3-yil	9-chorak	2333333334	105000000	145833333,3	250833333,3
	10-chorak	2187500000	98437500,01	145833333,3	244270833,3
	11-chorak	2041666667	91875000,01	145833333,3	237708333,3
	12-chorak	1895833334	85312500,01	145833333,3	231145833,3
4-yil	13-chorak	1750000000	78750000,01	145833333,3	224583333,3
	14-chorak	1604166667	72187500,02	145833333,3	218020833,3
	15-chorak	1458333334	65625000,02	145833333,3	211458333,3
	16-chorak	1312500000	59062500,02	145833333,3	204895833,3
5-yil	17-chorak	1166666667	52500000,02	145833333,3	198333333,3
	18-chorak	1020833334	45937500,02	145833333,3	191770833,3
	19-chorak	875000000,5	39375000,02	145833333,3	185208333,3
	20-chorak	729166667,2	32812500,03	145833333,3	178645833,3
6-yil	21-chorak	583333333,9	26250000,03	145833333,3	172083333,3
	22-chorak	437500000,6	19687500,03	145833333,3	165520833,3
	23-chorak	291666667,3	13125000,03	145833333,3	158958333,3
	24-chorak	145833334	6562500,031	145833333,3	152395833,3
Jami			1968750000	3499999999	5468750000

“Taxos” xususiy korxona ma'lumotlari asosida tuzildi.

Lizing to'lovlaridagi to'lovlarning kamayishi uslubidagi to'lov jadvali uslubning qulayligi shundaki, nisbatan qisqa davr ichida lizing obyekti qiymatining katta qismi to'lab bo'linadi (3.1.3-jadval)

3.1.4-jadval

«Sifatli xom-ashyo» investitsiya loyihasining qoplash muddati (PP) hisob-kitobi

Yillar	Pul oqimi	Jamg'arilgan pul oqimi
0	-3500000000	-3500000000
1	131712539	-3368287461
2	487391445,4	-2880896016
3	1069556618	-1811339398
4	1965854056	154514657,9
5	2963881417	3118396075
6	3968401079	7086797154
	PP=	3,921400748

“Taxos” xususiy korxona ma'lumotlari asosida tuzildi.

3.1.4-jadval ma'lumotlari, «Sifatli xom-ashyo» investitsiya loyihasining qoplash muddati hisob-kitobi natijalari

$$PP = 3 + \frac{1811339398}{1965854056} = 3 + 0,921400748 = 3,921400748 \text{ga}$$

teng ekanligini ko'rsatdi, ya'ni loyiha ishga tushgandan keyin tushadigan pul oqimlari orqali loyihaga ketgan xarajatlar 3 yil-u 336 kunda

(ya'ni, $3 + 0,921400748 \cdot 365 = 3 + 336,3$) qoplanadi. Agar korxona 6 yil muddatga 3 500 000 000 so'mlik lizing olganligini hisobga olsak, bu loyiha samarali ekanligini ko'rishimiz mumkin.

3.1.5-jadval

«Sifatli xom-ashyo» investitsiya loyihasining sof joriy qiymat (NPV) Hisob-kitobi

Yillar	Investitsiyalar(-), sof Pul oqimi(+), so'mda	Joriy qiymat koeffitsienti	Joriy qiymat so'mda
--------	---	-------------------------------	------------------------

0	-3500000000	1	-3500000000
1	131712539	0,847457627	111620795,8
2	487391445,4	0,71818443	350036947,3
3	1069556618	0,608630873	650965177,7
4	1965854056	0,515788875	1013965652
5	2963881417	0,437109216	1295539883
6	3968401079	0,370431539	1470020920
NPV	1392149376		

“Taxos” xususiy korxona ma’lumotlari asosida tuzildi.

3.1.5-jadval ma’lumotlari «Sifatli xom-ashyo» investitsiya loyihasining sof joriy qiymat (NPV) hisob-kitobi natijasi 1392149376 ga tengligini ko’rsatdi. Natija 0 dan katta ekanligi loyiha amalga oshirilishi natijasida samara keltirishidan dalolat beradi.

3.1.6-jadval

«Sifatli xom-ashyo» investitsiya loyihasining diskontlashtirilgan qoplash muddati (DPP) hisob-kitobi

№	Diskontlashtirilgan pul oqimlari	Kumulyativ pul oqimi
0	3500000000	-3500000000
1	111620795,8	-3388379204
2	350036947,3	-3038342257
3	650965177,7	-2387377079
4	1013965652	-1373411427
5	1295539883	-77871544,2
6	1470020920	1392149376
	DPP =	5,947026914

“Taxos” xususiy korxona ma’lumotlari asosida tuzildi.

3.1.6-jadval ma’lumotlari «Sifatli xom-ashyo» investitsiya loyihasining yig’ilgan diskontlashtirilgan sof pul oqimlarining investitsiya xarajatlariga teng bo’lgan davri 5,947 ga tengligini ko’rsatdi.

3.1.7 – jadval

«Sifatli xom-ashyo» investitsiya loyihasining rentabellik indeksi (PI) hisob-kitobi

№		
----------	--	--

1	Jami investitsiyalar summasi	3 500 000 000
2	Jami sof pul oqimlari summasi	4 892 149 376
3	Investitsiya loyihasining rentabellik indeksi (PI)	1,39

“Taxos” xususiy korxona ma’lumotlari asosida tuzildi.

3.1.7-jadval ma’lumotlari, «Sifatli xom-ashyo» investitsiya loyihasining rentabellik indeksi (PI) hisob-kitobi natijasi 1.39 ga tengligini ko’rsatdi.

Loyihaga qilingan har 1 so’mlik investitsiyaga 1.39 so’mlik pul tushumi to’g’ri keladi, ya’ni loyiha har 1 so’mlik daromadliligi 0.39 ga teng. Bundan loyiha samarali ekanligini xulosa qilish mumkin.

3.1.8-jadval

«Sifatli xom-ashyo» investitsiya loyihasining foydaning ichki me'yori (IRR) hisob-kitobi

Yil lar	Investitsiyalar (-),sof pul oqimi(+), so'mda	1- hisob-kitob		2- hisob-kitob	
		Joriy qiymat koeffitsienti, 18%	Joriy qiymat, so'mda	Joriy qiymat koeffitsienti, 40%	Joriy qiymat, so'mda
0	-3500000000	1	-3500000000	1	-3500000000
1	131712539	0,847457627	111620795,8	0,714285714	79729139,85
2	487391445,4	0,71818443	350036947,3	0,510204082	178590279,2
3	1069556618	0,608630873	650965177,7	0,364431487	237232207,6
4	1965854056	0,515788875	1013965652	0,260308205	263943578,7
5	2963881417	0,437109216	1295539883	0,185934432	240885472,4
6	3968401079	0,370431539	1470020920	0,132810309	195233932,1
		NPV 1 =	1392149376	NPV 2 =	-2304385390

$$IRR = 18 + \frac{1392149376}{dx113922149376 - (-2304385390)} = 26.29$$

Olingan lizing mablag’i to’lik qaytarilgandan keyin qolgan foyda korxonaning aylanma mablag’iga kelib qo’shilishini xisobga olsak, keyingi yillarda korxonani moliyaviy imkoniyati, ya’ni oladigan daromadi yanada salmoqli b’lishni ko’rishimiz mumkin.

Ushbu loyihani amalga oshirishda korxona tomonidan viloyat bozoridagi hamda yaqin regionlardagi bozorlar atroflicha analiz qilib chiqildi. Yuqorida ko'rsatilgan moliyaviy natijalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, paxta tolsaini qayta ishlab chiqarish xamda trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan mahsulotlar ichki va tashqi bozordagi xolati, xom-ashyo materiallarni yetkazib berish, sotish bozori, bozorga shunga o'xshash xizmat ko'rsatuvchi riqobatchilarning xolati, hamda boshqa faktorlarga asoslanib ushbu loyiha samarali amalga oshiriladi deb xulosa qilish mumkin.

Ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun kerakli miqdorda xom-ashyo bilan ta'minlash imkoni mavjudligi, zamonaviy texnologiyalar bilan jixozlanganligi, malakali kadrlarning mavjudligi, ko'rsatilayotgan xizmatlarning arzon va sifatli, yuqori likvidligi loyihani oqilona tarzda amalga oshishiga imkoniyat yaratadi.

III-BOB. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalari faoliyatida lizing operatsiyalarini rivojlanishining yanada takomillashtirish masalalari.

3.1. Sanoat korxonalairda lizing jarajonlarini rivojlantirish yo'llari

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllaridagi sub'yektlarning sonini yanada ortishi natijasida asosiy ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan ehtiyoj, ayniqsa lizing xizmatiga bo'lgan talab oshib bormoqda. Kuzatishlarimiz ko'rsatishicha asosiy texnika vositalari har yili o'rtacha 10 foiz miqdorida o'z xizmat muddatini o'tab bormoqda, natijada, bu holat xo'jaliklarning asosiy texnika bilan ta'minlanganlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, lizing munosabatlarining rivojlanishiga quyidagi to'siqlar ta'sir etmoqda:

- lizing beruvchilarning aylanma mablag'larining yetishmasligi;
 - lizingga olinayotgan uskunalarga foizning yuqoriligi;
 - lizing oluvchi sub'yektlarning to'lov qobiliyatining pastligi;
 - tadbirkorlarning lizing xizmatlaridan foydalanish darajasining yetarli emasligi.
- Tuzilayotgan lizing kompaniyalar texnologik, tashkiliy va huquqiy jihatdan mavjud ta'minot tashkilotlari va xorijiy qo'shma lizing kompaniyalari bilan teng huquqli bo'lgandagina, ular o'zaro raqobatlasha olishi mumkin. Lizing tizimida

haqiqiy sog'lom raqobat muhitini vujudga keltirishi, lizing xizmat turlarining sifatini yaxshilash, lizing to'lov xarajatlarini arzonlashtirish, eng asosiysi esa, bugungi murakkab iqtisodiy sharoitda, keng faoliyat yuritishiga barcha imkoniyatlari yaratish maqsadga muvofiqdir.

Xo'jalik sub'yektlari uchun tijorat banklari va lizing beruvchi kompaniyalar tomonidan bajarilayotgan lizing operatsiyalari kapitalni moliyalashtirishning noan'anaviy usullaridan biri bo'lib, unda ijara munosabatlari, garov ostidagi kreditli moliyalashtirish elementlar qarziy majburiyatlar bo'yicha hisob-kitoblar va boshqa moliyaviy mexanizmlar mujassamlashgan.

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridanoq bunga iqtisodiyot rivojlanishini ta'minlay oladigan va kapitaldan samarali foydalanishning bir vositasi sifatida alohida e'tibor berdi. Shu bilan yuqoridagi rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan samarali foydalanish hamda endigina rivoj topayotgan lizing xizmatlari bozorining to'laqonli amal qilishini tashkil etish maqsadida lizing faoliyati va munosabatlariga ixtisoslashgan me'yoriy-huquqiy asoslarni shakllantirish zaruriyati tug'ildi. Lizing nafaqat mikroiqtisodiy, balki makroiqtisodiy jarayonlarga mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga ham ta'sir qilmay qolmaydi, albatta. Uni quyidagilarda ko'rish mumkin:

- mamlakatda investitsiya qo'yilmalaridan maqsadli foydalanishni kafolatlaydi;
- investitsiya siyosatini faol va samaraali o'tkazilishini ta'minlaydi;
- an'anaviy moliyalashga qo'shimcha ravishda mablag'larni asosiy fondlarga qo'yish imkonini beradi;
- xususiy va kichik tadbirkorlikda faoliyat yuritayotgan ishlab chiqaruvchilarning rivojlanishini rag'batlantiradi;
- qo'shimcha ma'muriy organlar tuzmagan holda, faqat iqtisodiy uslublar vositasida ishlab chiqarishni rivojlantirishni investitsiyalaydi;

- mamlakatda aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashadi va hokazo. Lizing bir vaqtning o'zida ham moliyalash, ham yangi texnologiyalarni harid qilish masalalarni hal etishda o'xshashi yo'q moliyaviy vositadir. Shuni ta'kidlash joizki, lizing faoliyati bir qator rivojlangan davlatlarda iqtisodiy taraqqiyotning, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashning juda muhim va samarali shakli hisoblanadi. Lizing tufayli ham lizing sotuvchi, ham lizing beruvchi, ham lizing oluvchi, ya'ni lizing operatsiyasida qatnashuvchi har bir sub'yekt manfaat topadi. Masalan, ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) lizing operatsiyasi tufayli eng avvalo uskuna va mashinalarning oldi-sotdisini amalga oshirib sotuv ko'lamini kengaytirish mumkin (3.1.1-jadval)

3.1.1-jadval

Sotuvchi uchun lizingning afzallik tomonlari¹¹

¹¹ Коршунова Н.М., Шабалин М.Б. «Лизинг». М.: Юнити: 2001 г.

№	Sifat jihatdan afzallik tomonlari	Afzallikni ta'minlovchi omillar
1	2	3
1	Faol marketingning olib borish imkonini tug'iladi	Iste'molchilar doirasida quyidagi sub'yektlar hisobiga kengayadi: • doimo texnikaga egalik qilishda ehtiyoj sezmaydiganlar; • uskunani sotib olishga qurbi yetmaydiganlar; • dastlab texnikani amalda sinab ko'rishni istaydiganlar; • ijara shartida foydalanishni xohlovchilar; • mulkka egalik qilish huquqisiz uni mulk qilish istagida bo'luvchilar
2	Qaytma (qarshi) aloqani o'rnatish imkoniyati bo'ladi	• uskunaning nosozligini tezroq aniqlash imkoniyati
3	Ishlab chiqarishni kengaytirish va mahsulotni yangilash sur'atini tezlashtirish imkonini bo'ladi	• mahsulot modelini tezkor o'zgartirib turishi va shu asnoda yangi bozorni egallab olish imkoniyati
4	To'lovsizlik riskini bartaraf qilishga erishiladi	• lizing operatsiyasi uchun to'lov va kafolatni lizing kompaniyasining o'z zimmasiga olishi
5	Samarali reklamaga erishiladi	• mulk lizingi sifati bo'yicha monitoringni uni ishlatish doirasini kengaytirish, haridorlarning potensial motivatsiyasini kuchayishi
6	Lizing uskunasi uchun zarur bo'lgan ehtiyot va butlovchi qismlarga talabni oshiradi	• mulk lizinggidan foydalanishning turli tumanligi ehtiyot qismlarga bo'lgan talabning kengaytirishiga olib kelishi
7	Investitsiya qilish kengayadi	• uskunalarining oldi-sotdisining tezlashishi ishlab chiqaruvchi ixtiyorida bo'lgan investitsiyani qisman holi qilishi
8	Ishlab chiqaruvchi ixtiyoridagi vaqtincha realizatsiya qilinmagan mulkdan foydalanish samaradorligi oshadi	• qaytarib berish sharti bilan zarur muddatga mulkni lizingga berish imkoniyati

Mulkni lizingga berish lizing beruvchiga ham bir qator afzalliklar beradi, xususan, u o'z kapitalidan investitsiya tufayli samarali foydalanishga erishiladi. Bu afzalliklarni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin

Korxona uchun lizing operatsiyasining afzalliklari¹²

№	Strategik afzalliklar	Afzallikni ta'minlovchi omillar
1	2	3
1	Kreditorni himoya qilish darajasi oshadi	oldi-sotdi lizing sub'yekti bilan ta'minlanadi. Bankrot bo'lish xavfi tug'ilganda lizing ob'yekti mulk egasi qaytarib beriladi.
2	Lizing davlat tomonidan qo'llab-quvvatlaadi, soliq imtiyozlari beriladi	lizing beruvchi hisobidan soliq imtiyozini olish imkoni bo'ladi. Turli soliq shartlari holatida lizing beruvchiga lizing kelishuvlari evaziga qo'shimcha imtiyoz olish imkonini beradi.
3	Ishlab chiqarish vositalarini diversifikatsiya qilish va rivojlantirish imkoni tug'iladi	Tovar ishlab chiqaruvchilar uchun lizing munosabatlariga, ya'ni sub'yektlarni jalb qilish va shu asnoda ularning bozorini kengaytirish imkoni tug'iladi. Texnikaga bo'lgan talabni to'lash qobiliyati q'llab-quvvatlanadi. Mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqarish ko'lamini kengayadi, sifati oshadi.
4	Davlat manfaatlarini realizatsiya qilish qo'llab-quvvatlanadi	Ishlab chiqarishni texnika va texnologiya jihatdan qayta qurollanish tezlashadi. Mamlakat iqtisodiyotiga xususiy investitsiyani jalb qilish imkoniyati tug'iladi. Raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish evaziga davlat byudjetiga soliq tushumlari ko'payadi
5	Lizing beruvchining moliyaviy holatini mustahkamlaydi	Lizingdan olingan daromadlar va xarajatlar bir vaqtning o'zida realizatsiya qilinadi.
6	Moliyaviy leveraj samarali bo'ladi	Lizing beruvchining lizing ob'yektidan oladigan yillik samarasi, odatda, kredit uchun foiz tolovlaridan yuqori bo'ladi.

Albatta yaratilayotgan bunday imkoniyat va imtiyozlar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, sifatli mahsulotlar ishlab chiqargan holda aholi ehtiyojlarini qondirish, raqobatbardosh mahsulotlar bilan jahon bozoriga chiqishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 28 avgustdagi
 “Lizing tizimi rivojlanishini yanada rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar

¹² Коршунова Н.М., Шабалин М.Б. «Лизинг». М.: Юнити: 2001 г

to'g'risida"gi Farmonigacha moliyaviy lizing operatsiyalarini amalga oshirishda soliq va bojxona to'lovlari bilan bog'liq juda katta chegaralanishlar mavjud edi. Mazkur farmon bo'yicha lizingni

rivojlantirish uchun yangi imtiyozlar yaratildi. Ya'ni, lizing to'lovlari qo'shilgan qiymat solig'idan, bank kafolati ostida lizing bo'yicha respublikaga import qilinayotgan mol-mulk bojxona to'lovlaridan hamda lizing oluvchi lizing ob'yekti bo'yicha daromad solig'i bazasi kredit foizlari summasiga kamaytirildi. Albatta, Ushbu Farmon bo'yicha yaratilgan imtiyozlar kelajakda mamlakatda lizing operatsiyalarining rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Lekin shunga qaramasdan, hali lizing ob'yekti o'z harakatida barcha soliq chegaralanishlaridan xolos bo'lganicha yo'q. Barcha rivojlangan mamlakatlarda lizingning dastlabki rivojlanish bosqichi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan, bunda, ayniqsa, lizing amaliyotlari bo'yicha berilgan soliq imtiyozlari katta ahamiyat kasb etgan. Masalan, ayrim mamlakatlarda lizing bo'yicha sarflangan xarajatlar soliqqa tortadigan bazani hisoblashda chegirib tashlanadi va jadallashtirilgan amortizatsiya qo'llagan hollarda ham soliq bo'yicha imtiyozlar yaratilgan. Shu bois respublikada lizing amaliyotlarini yanada rivojlantirish maqsadida soliqlar bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar berilishi lozim. Masalan, lizing kompaniyalari va tijorat banklarini lizing amaliyotlaridan olgan foydasidan soliq to'lashni ma'lum muddatga bekor qilish yoki uning hajmini ssuda amaliyotlarinikiga nisbatan sezilarli darajada kamaytirish maqsadga muvofiq bo'lardi. Shu bilan birga, lizing operatsiyalarining oqsab qolishiga sabab, bizning fikrimizcha, investorlarning, ayniqsa, kichik va o'rta biznes sohiblari malakasining pastligi, o'ziga qanday asbob-uskuna kerakligini aniq bilmasligi va hali lizing operatsiyalari mohiyatini to'la tushunib yetmaganligidadir. Bundan tashqari, lizing kompaniyalarining moliyaviy jihatdan nochor ekanligi, aniqrog'i, moliyaviy mablag'larga muhtoj bo'lib qolganligidadir. Shuning uchun ham ularning asosiy operatsiyalarini tijorat banklari moliyalashtirmoqda.

Qo'shimcha ravishda yana shuni aytish kerakki, hali ham respublikada targ'ibot ishlarini olib boorish tadbirlariga yetarli e'tibor bermay kelinmoqda. Joylarda

tadbirkorlarga mana shunday yangi qulay va manfaatli moliya xizmatlari to'grisida tashviqot ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

Jahon iqtisodiy banklarning lizingning kapital qo'yilmalarini yetarli darajada saqlab turishga xizmat qiluvchi moliyaviy vosita sifatidagi yuqori samaradorligidan dalolat bermoqda. Tijorat banklarning lizing moliyalashtirishning tijorat banklari negizida tashkil qilinadigan lizing kompaniyalari yoki banklarning o'zi amalga oshiradi. Shubhasiz, biznesning o'ziga xos bu turi bilan shug'ullanish banklarning o'ziga yoki ularning maxsus bo'limlariga, shuningdek, banklar bilan aloqador moliyaviy vositachilar uchun qulaydir.

Bugun biz O'zbekiston Respublikasida lizingning huquqiy asoslari shakllanayotganligini ishonch bilan aytishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi lizing shartnomasining mazmuni, lizing sub'yektlari va ularning huquq va majburiyatlarini, shuningdek, lizing muomalalarida ishtirok etayotgan sub'yektlarning javobgarligini, lizing ob'yektlarini, sublizingni belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga binoan, lizing to'lovi – bu lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchiga to'lanadigan hamda lizing ob'yektini sotib olish va lizing stavkasi bilan bog'liq barcha sarfxarajatlarni o'z ichiga olgan pul summasidir.

Respublika sanoat korxonalari 1997 yil 29-martda 11-sonli bayon bilan qabul qilingan 327-sonli :O'zbekiston Respublikasi korxonalari tomonidan lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi" yo'riqnomasiga amal qiladi.

Ishlab chiqilgan ushbu tartib – lizing operatsiyalarini o'tkazish jarayonida bank bilan lizing beruvchi, shuningdek, lizing oluvchi bilan lizing ob'yektini ishlab chiqaruvchi sub'yekt o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi. Biroq mazkur tartib lizing beruvchi bankning lizing ob'yektlarini o'z shaxsiy mablag'lari hisobiga sotib olishni nazarda tutadi. Vaholanki, bu korxonalarga lizing operatsiyalari hajmini jalb qilingan mablag'lar hisobiga ko'paytirish imkonini bermaydi.

Bizning Respublikada lizing munosabatlari bo'yicha tajribalarimizning yetarli emasligi bir qator muammolarni, jumladan:

- iqtisodiyotimizni ko`p ukkladli sistemaga o`tkazish;
- fermer yoki qishloq xo`jaliklarini dastlabki kapital bilan ta`minlash;
- qishloq xo`jaligini o`sib borayotgan texnikaga bo`lgan ehtiyojini qondirish;
- baho tizimini takomillashtirish, ya`ni qishloq xo`jaligiga xizmat qiluvchi sanoat korxonalari ulgurji baholari bilan qishloq xo`jaligi harid baholarining ekvivalentligini ta`minlash kabilarning hal etilishiga salbiy ta`sir ko`rsatmoqda.

Hozirgi kunga kelib yuqorida qayd etilgan muammolar asta-sekin hal etilmoqda, lekin lizing operatsiyalarini kengaytirishga quyidagi omillar qarama-qarshi ta`sir etmoqda:

o soliq siyosatining to`xtovsiz o`zgarishi; o qo`shni mamlakatlardagi siyosiy notinchlik; o kredit resurslarining yetishmasligi; o lizing firmalarining kamligi, ularning doimiy harakatlanishi uchun huquqiy bazaning takomillashmaganligi; o lizing firmalarida xizmat qiluvchi kadrlarning yetishmasligi.

Yuqoridagi muammolarni hal etilishi bevosita qishloq xo`jaligida chet el texnikasini qo`llash va chet el investitsiyasining oqib kelishiga yo`l ochib beradi. Chet el texnikasini bizning qishloq xo`jaligida lizing shakli orqali qo`llanilishi eksportli lizing deb ataladi.

Eksportli lizing – bu chet el lizing kompaniyalari tomonidan yoki firmalari ishlab chiqarish vositalarining boshqa bir davlat ijarachilariga taqdim etishdan iboratdir.

Korxonalarni lizingning afzalliklaridan biri shuki, bunda boshqa mamlakatlarning takomillashgan texnika va jihozlaridan foydalanish tijorat banklarning shartnomalarga ko`ra moliyaviy va soliqlar bo`yicha yengilliklardan foydalanish imkoniyati yaratildi. Tijorat banklarning Valyuta Fondining qaroriga binoan chet el mashina va mexanizmlarini ijaraga olish, ijaraga oluvchi mamlakatning chet el qarzlari miqdorini oshirmaydi. Bizning respublikamizda korxonalarning lizingdan foydalanish masalasini mamlakatimizda qo`shma lizing kompaniyalari yoki firmalarini tuzish yo`li bilan hal etish mumkin.

Chet el amaliyoti shuni ko'rsatadiki, alohida viloyat va hududlarda lizing operatsiyalari bo'yicha keng qulayliklar mavjud. Bunday qulayliklar nafaqat bizning iqtisodiyotimizga, balki aholi turmush darajasi nospor bo'lgan nostabil joylarga ham zarurdir. Shuning uchun bizning iqtisodiyotimizda lizing tarmog'ini vujudga keltirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib berish ham muhimdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy o'sish sur'atlari darajasini ko'tarish uchun – korxonalarning lizing kompaniyalari bilan samarali bitimlar tuzish lozim. Chunki, mana shu operatsiyalar orqali ham sanoatni, ishlab chiqarishni rivojlantirish mumkin. Sanoat va ishlab chiqarishi yuqori bo'lsa, demakki, eksport salohiyatimiz ham yaxshi bo'lishi mumkin. Agar mamlakatimiz eksportdan qo'plab valyutaviy tushumlar olsa, demakki savdo balansimiz ijobiy bo'ladi. Savdo balansi ijobiy bo'lsa, to'lov balansining ijobiy bo'lishiga zamin yaratiladi. Iqtisodiyotni o'sishi yuqori bo'ladi

3.2. Sanoat korxonalari faoliyatida lizing asosida moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llar

Ma'lumki, lizing hizmati texnologik munosabatlarning moliyaviy ko'rinishdagi tezkor va qulay vositasi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, u zamonaviy, yuksak texnologiyalarni keng miqyosda jalb qilgan holda, iqtisodiyot va biznes rivojlanishining garovidir.

Investitsiya qo'yilmalarining samarali turlaridan biri lizing operatsiyalaridir. Rivojlangan mamlakatlar bozor iqtisodiyotiga o'tishining dastlabki jarayonida lizing operatsiyalari qo'llanilgan va bu deyarli barcha davlatlarda iqtisodiy o'sishga sezilarli turtki bo'lgan.

Lizing bir vaqtning o'zida moliyalashtirish va yangi texnologiyalarni xarid qilish masalalarini hal etish, aylanma mablag'larni to'ldirish hamda boshqa ehtiyojlar uchun mablag'larni ozod qilish imkonini beruvchi noan'anaviy moliyaviy manbalardan biri hisoblanadi.

Lizingdan foydalanish qisqa vaqt ichida asosiy fondlarni yangilash hamda shakllantirish, shuningdek, qo'shimcha ma'muriy organlar tuzmay turib, faqat iqtisodiy uslublar vositasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantiruvchi investitsiya siyosatini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. O'tgan davrda mamlakatimizda lizing bozori uch bosqichni bosib o'tdi. Birinchi bosqichda (1991 - 1999 y.) lizing qonunchiligi shakllandi, xalqaro tamoyillar izchil joriy etildi. Ikkinchi bosqich (1999 - 2005 y.) lizing huquqiy bazasining takomillashuvi, lizing bozorida ishtirokchilar sonining ko'payishi bilan izohlanadi. Uchinchi bosqich (2005 - 2011) esa lizingning ommalashishiga, hizmatlar bozorida raqobat muhitining barqarorlashuvi uchun shart-sharoit yaratdi. O'z vaqtida qabul qilingan qonun, shuningdek, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar lizing bozoriga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ayni chog'da kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida yaratilayotgan yengilliklar qatorida, lizing oluvchilar lizing to'lovidagi qo'shimcha qiymat solig'idan ozod etilganligi, lizing obyektidan mulk solig'i olinmasligi, lizing asosida xarid qilingan texnologik uskunalar bojxona to'lovlari va qo'shimcha qiymat solig'iga tortilmasligi belgilab qo'yilgani ham ayni muddao bo'ldi. O'zbekistonda lizing hizmatlari ko'rsatish bilan nafaqat lizing kompaniyalari, balki mamlakatimizning deyarli barcha banklari ham shug'ullanishadi. Ularda lizing hizmatlari ko'rsatish muddatlarida ham tafovut yo'q, hisobi. Kompaniyalar va banklar 1 yildan 5 yilgacha ijara muddatini belgilashadi. Faqat "O'zqishloqqurilishmashlizing", "O'ztranslizing" kompaniyalarining lizing berish muddati, masalan, 80 oydan 120 oygacha qayd etilgan. Banklar orasida uzoq muddatli lizinglarni "Aloqabank",

"Mikrokreditbank", "Hamkorbank"lar 8 yil muddatgacha taqdim qilishlari mumkin.

Mamlakatimizda lizing beruvchilar va lizing oluvchilar uchun qulay bozor infratuzilmasi va tegishli qonunchilik bazasi yaratilgan. Amalga oshirilgan ishlarning natijasida O'zbekiston lizing bozorida ishtirokchilarning, ular qatorida banklarning, lizing kompaniyalarining soni doimiy ravishda o'sib bormoqda O'zbekiston lizing bozorining keyingi rivojlanishi bir necha faktorlarga bog'liq. Ularning orasida qulay

qonunchilik muhitini va lizing kompaniyalariga manfaatli investitsiyalar imkoniyatini alohida qayd etish mumkin. Bundan tashqari qurilish mollarini ishlab chiqarishga va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga, maxsus qurilish texnikasiga, avtotransportga (yuk va yo'lovchi), shuningdek kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida bo'lgan ehtiyojning mavjudligi milliy lizing kompaniyalari faoliyatini yanada aktivlashuviga imkon beradi.

Lizingning bir qator o'ziga xos xususiyatlari bor.

Birinchidan, lizing – mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga olish va sotib olish asosida vaqtinchalik foydalanishga berish bo'yicha ishlarning mulkiy munosabatlar majmuasidir.

Ikkinchidan, lizing - lizing oluvchi (yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor) lizing beruvchi tomonidan sotib olingan mulkni o'z ixtiyori bilan foydalanish uchun oladi. Daromad olib, qarzlarni lizing beruvchiga to'lab boradi. Odatda, lizing operatsiyasining vaqti tugashi bilan mulk lizing oluvchining mulki bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, lizing tadbirkorlik faoliyatidagi muayyan majburiyatlar turiki, unda ortiqcha yoki jalb qilingan moliyaviy mablag'lar mulkni investitsiyalashga, shartnomaga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslarga ma'lum muddat va to'lov asosida foydalanishga yo'naltiriladi.

Yanada kengroq ma'noda yondashadigan bo'lsak, lizing masalasi lizing shartnomasi va kelishuvidan tashqari, texnika va uskunarlar yetkazib berish, qarz berish hamda sug'urtalash shartnomalarini o'z ichiga oluvchi mulkiy munosabatlar majmui hisoblanadi. Mulkdan foydalanish uchun ma'lum muddatga lizing berilishi lizing asosini tashkil etadi.

Amaliyot va maxsus adabiyotlarga tayanib aytadigan bo'lsak, tadbirkorlik subyektlari lizingdan foydalanganda quyidagi afzalliklarga ega bo'ladilar: — texnologiya va uskunalarning - qisqa fursat ichida ma'naviy eskirishi sharoitida zamonaviy texnologiya va uskunalarga ega bo'lish imkoniyati;

— mulkiy va moliyaviy muammolarni uyg'unlikda hal qilish imkoniyati;

— xarid qilinayotgan asosiy vositalar qiymatining to'liq to'lanishidan ozod etilishi;

- lizingga berilishi ko'zda tutilayotgan texnologik uskunani bojxona to'lovlari hamda qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi;
- lizing to'lovlaridan qo'shilgan qiymat solig'i olinmasligi; — lizing obyekti bo'yicha lizingga oluvchi shaxsning mol-mulk solig'idan ozod etilishi;
- daromadning soliqqa tortiladigan qismini aniqlash jarayonida lizing oluvchining yalpi daromadlaridan lizing bo'yicha foiz to'lovlarining to'liq chegirilishi (bunday imtiyoz tijorat banklarining kreditlaridan foydalanganda qo'llanilmaydi).

Xorijiy mamlakatlarda lizingdan aynan shu maqsadda, ya'ni mulkni sotib olish va uni kelgusida ijaraga berish asosida vaqtinchalik foydalanishga topshirish sifatida foydalaniladi. Jahon iqtisodiy amaliyoti lizingni kapital qo'yilmalarini yetarli darajada saqlab turishga hizmat qiluvchi moliyaviy manba sifatidagi tashkilot deb baholaydi.

O'zbekiston Respublikasida lizing xizmatlari o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud. Bu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun quyidagi taklifni kiritamiz:

- kichik biznes subyektlari lizing olish uchun taqdim etiladigan hujjatlarni tayyorlash ma'lum muddat vaqt olishini hisobga olib, lizing beruvchi tashkilotlar qoshida lizing olish uchun taqdim etiladigan hujjatlarni tayyorlash bilan shug'ullanuvchi malakali mutaxassislarga ega tashkilot tashkil etish. Yuqoridagilar lizingning rivojlanishi, undan foydalanishning kengayishi, investitsiyaviy muhitning yaxshilanishi, investitsiyalar samaradorligining oshishi, makroiqtisodiy barqarorlikning yanada mustahkamlanishiga olib keladi. Natijada mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanadi va aholi turmush darajasi o'sib, investitsiya uchun mablag'lar jamg'arilishiga moyillikning ortishiga iqtisodiy asos yaratiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy o'sish sur'atlari darajasini ko'tarish uchun – Tijorat banklarning lizing kompaniyalari bilan samarali bitimlar tuzish lozim. Chunki, mana shu operatsiyalar orqali ham sanoatni, ishlab chiqarishni rivojlantirish mumkin. Sanoat va ishlab chiqarishi yuqori bo'lsa, demakki, eksport salohiyatimiz ham yaxshi bo'lishi mumkin. Agar

mamlakatimiz eksportdan qo`plab valyutaviy tushumlar olsa, demakki savdo balansimiz ijobiy bo`ladi. Savdo balansi ijobiy bo`lsa, to`lov balansining ijobiy bo`lishiga zamin yaratiladi. Iqtisodiyotni o`sishi yuqori mamlakatlarning aholisining yashash sharoiti va milliy daromadi yuqori bo`ladi.

Xulosa

Hozirda mamlakatimizda ijara, xususan lizing munosabatlarini tadbirkorlik faoliyatining turli sohalariga tatbiq etishga alohida e`tibor berilmoqda. Lekin, kezi kelganda aytish kerakki, lizing amaliyoti va uning turli jihatlari hali O`zbekistonda to`la shakllanib, rivojlanib ulgurgani yo`q.

Mana shu ma`noda, amaldagi qonunchilik me`yorlarini takomillashtirish, lizing tushunchasi va uning turlarini, lizing shartnomasi hamda yuridik jihatlari o`rganish, tahlil qilish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. O`rganish natijalariga ko`ra, ushbu mavzuni ilmiy jihatdan yoritish uchun quyidagi xulosa va takliflarni ilgari surmoqchimiz:

1.Hozirda respublikamizda lizingga berilayotgan lizing ob`yektlarining 75 foizdan ko`prog`ini qishloq xo`jalik texnikalarini tashkil etadi. Demak, iqtisodiyotning qishloq xo`jaligidan boshqa tarmoqlariga lizingni keng joriy etish imkoniyatiga hali erishilgani yo`q. Lizingni keng joriy etishning eng asosiy shartlaridan biri lizing beruvchi kompaniyalarning tegishli sarmoyalarga ega bo`lishi hisoblanadi. Buning uchun banklar tomonidan lizingga foydalanish sharti bilan lizing kompaniyalariga berilayotgan kredit mablag`larining foiz stavkalari pasaytirilsa maqsadga muvofiq bo`lar edi. 2.Lizing jarayonlari serqirra va murakkab jarayon bo`lganligi uchun ham lizing sohasida respublikamizda alohida muddatlik o`quv kurslarini tashkil etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunda, lizing sub`yektlariga lizing shartnomalarini tuzish, unda tomonlarning o`zaro huquq va majburiyatlarini belgilash, lizing sohasidagi moliya, soliq, bojxona, sug`urta, sud, buxgalteriya

qonunchiligi me'yorlarini keng tushuntirish masalalariga alohida e'tiborni qaratish muhimdir.

3.Ma'lumki, lizing to'xtovsiz rivojlanayotgan soha. Shuning uchun rivojlangan davlatlardagi lizing qonunchiligi masalalarini yanada chuqurroq o'rganish hamda ijobiy omillarni respublikamiz lizing qonunchiligiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

4.Respublikamizdagi faoliyat ko'rsatayotgan lizing kompaniyalarning faoliyati o'rganilib, lizing jarayonlarini yanada rivojlanishiga to'siq bo'layotgan ba'zi muammolar aniqlandi.

5.Respublikamizda lizingni yanada rivojlantirishning kompleks dasturi ishlab chiqilishi va unda quyidagilar nazarda tutilishi lozim deb hisoblaymiz:

- Lizing sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlarining belgilanishi;
- Lizing bo'yicha qisqa va uzoq muddatli o'quv kurslarining tashkil etilishi;
- Chet el investitsiyalarining lizing sektoriga jalb etish masalalari;
- Moliya, soliq, bojxona, sug'urta, sud, buxgalteriya, mahsulotni sotish, bank, mulkchilik qonunchiligi me'yorlarining lizing faoliyatiga daxldor bo'lgan qismini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish;
- Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga lizing yanada kengroq joriy etish imkoniyatlarini belgilash;

Bino va inshootlarni lizingga berishni rivojlantirish Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda quyidagicha xulosa qilish mumkinki, korxona lizing biznesida ham bevosita hamda bilvosita, ya'ni korxonalar lizing kompaniyalarini investitsiya mablag'lari bilan ta'minlash orqali ham ishtirok etishi mumkin.

Lizing sohasini rivojlantirishdagi asosiy omillardan biri lizing beruvchilarning moliyalashtirish manbalaridan foydalana olishidir. Tijorat banklari milliy valyutada etarlicha moliyalash manbalariga ega bo'lsa, lizing kompaniyalarining banklardan

moliya resurslarini jalb qilishiga to'g'ri keladi. Bu esa o'z navbatida lizing talabnomalari ko'rib chiqilishining tezkorligi va xizmatlar qiymatiga ta'mir ko'rsatadi. Shu o'rinda, lizing kompaniyalari tomonidan erkin konvertatsiya qilinuvchi valyutalarda moliyalashtirish hajmlarini oshirish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kreditlarni jalb qilish masalasi ko'rib chiqilishi kerak.

Lizing kompaniyalari faoliyatini taraqqiy toptirishda rivojlangan mamlakatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, lizingdan foydalanishda ayrim mintaqa va bozor sektorlariga imtiyozlar berish natijasida butun mamlakat iqtisodiyotida ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilgan.

Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida quyidagi amaliy takliflarni ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldik:

- respublika va xalqaro lizing bozorida bank kapitalining faol aralashuvini ta'minlash;
- yirik moliyalashtirish manbalarining lizing bozoriga yo'naltirish;
- moliyaviy xizmatlar bozorini jadal rivojlantirish;
- lizing faoliyatining soliqqa tortishning xar tomonlama qulayligini ta'minlash; - lizing beruvchiga lizing obyektiga hisoblangan to'lov summalarini o'z vaqtida qaytarilishga doir huquqiy bazani takomillashtirish;
- bank kreditlarining past foizli stavkalarini joriy etish.

Ushbu natijalarga erishish uchun lizing kompaniyaalrining bosharuv tizimini takomillashtirish, xalqaro standartlarga mos rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Qayd etish joizki, respublikada lizing sohasi tezkor sur'atlarda sezilarli o'sish salohiyatini namoyon etmoqda. Yaqin kelajakda moliya-investitsiya zanjiridagi barcha ishtirokchilar o'rtasidagi tartiblangan va himoyalangan munosabatlarni, iqtisodiyot va hududiy infratuzilmaning asosiy tarmoqlari modernizatsiya qilinishini ta'minlovchi lizing O'zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlab beruvchi istiqbolli vositalardan biriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Prezident asarlari.

1. O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi Qonuni. 1999 yil 14aprel. 2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, 2004
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi 2007 yil 25 dekabrda
4. O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik Protsessual Kodeksi
5. O'zbekiston Respublikasining «Mikromoliyalash to'grisida» Qonuni 2006 yil 15 sentyabr
6. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi 69-II-sonli Qonuni. 2000 yil 25 may
7. O'zbekiston Respublikasining «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi 327-sonli Qonuni. 2012 yil 26 aprel
8. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida»gi Qonuni, 2012 yil 20 dekabr 9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi 1474- sonli qarori bilan tasdiqlangan “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturi
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 4354-sonli Farmoni, 2011-yil 24-avgust

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib- taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlar to'g'risida» gi 4453-sonli

Farmoni, 2012 yil 16 iyul

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinliklar berish chora

- tadbirlari» to'g'risida» gi Farmoni, 2012 yil 18 iyul

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida”gi PQ-1501-sonli Qarori, 2011-yil 11-mart

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida ”gi PQ-1438-sonli Qarori, 2010-yil 26-noyabr

15. I.A. Karimov Islohotlar strategiyasi – mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdir, Milliy ta'lim, 21.02.2003 - №3. 16. I.A. Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.- T.-O'zbekiston, 2009. 17. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 1 iyunda

1961-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan «Buxgalteriya hisobida ijara operatsiyalarini aks ettirish tartibi to'g'risida»gi Nizom **II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar:**

18. Газман В.Д. Лизинг: теория, практика, комментарии. – М.: Фонд "Правовая культура", 1997.

19. В.Д.Газман «Рынок лизинговых услуг»М.:Фонд «Правовая культура», 1999

20. Л.П. Ануфриева Международное частного право. – М.: Бек, 2000

21. Ю. Галимов «Лизинг – синтез аренды и кредита», деловой партнер

Ўзбекистана, февраль 2000

22. D.G'. G'ozibekov "Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari". T. "Moliya", 2003y.
23. A.S.Jo'raev, D.Y. Xo'jamqulov, B.S. Mamatov Investitsiya loyihalari tahlili: Oliy o'quv muassasalari uchun o'quv qo'llanma - T.: - «SHarq», 2003.
24. D.G'. G'ozibekov, O.Sh. Sobirov, A.G. Mo'minov, O.M. Quljonov «Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti» T.: Fan va texnologiya, 2004
25. O'zbekiston Respublikasi savdo - sanoat palatasi, O'zbekiston Banklar assotsiatsiyasi, Baraka universal lizing komp. «Lizing... bu nima?» Tadbirkorlar uchun qo'llanma, T.: O'zbekiston, 2006
26. O.T. Hazratqulov «Lizing munosabatlari va ularni tartibga solish muammolari», Dissertatsiya. T.: 2006
27. A.Uzoqov, N.Kenjayeov, "Investitsiyalarni tashkil etish v moliyalashtirish", T.: "Iqtisod-moliya" 2007

III. Davriy nashrlar va statistik to'plamlar

28. "BOZOR, PUL VA KREDIT" jurnali, 08 (159) 2010
29. "BOZOR, PUL VA KREDIT" jurnali, 08 (183) 2012
30. "MOLIYA" jurnali, 3/2012
31. "BOZOR, PUL VA KREDIT" jurnali, 01/2013(188)
32. "BOZOR, PUL VA KREDIT" jurnali, 04/2013(191)
33. "Taxos" xususiy korxonaning statistic ma'lumotlari

IV. Internet saytlari

1. www.gov.uz O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal
2. www.press-service.uz/, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati
3. www.mehnat.uz O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi

ILOVALAR

“Taxos” xususiy korxonasi buxgalteriya balansi (ming so’mda)				
№	Ko’rsatkichlar nomi	2015y		
			2764868	2838619
			711950	689480
			2052918	2149139
			42918	39918
			42918	39918
1	Boshlang’ich (qayta tiklash) qiymati (0100, 0300)	2658566	2095836	2189057
2	Eskirish summasi (0200)	580133		
3	Koldik (balans) qiymati	2078433		
4	Uzok muddatli investitsiyalar, jami shu jumladan:	42918	12391649	13597033
5	Qimmatli qog’ozlar (0610)	42918	11637658	11008571
6	1-bo’lim bo’yichajami:	2121351	753991	2588462
			221464	
7	Tovar material zahiralar, jami	9754450	128359	160617
8	Ishlab chiqarish zaxiralari (1000,1100,1500,1600)	8633633		504
9	Tayyor mahsulot (2800)	1120817	83736	142355
10	Kelgusi davr xarajatlari (3100)	210301		
11	Debitorlar, jami	32626	44623	17758
12	Xaridor 4900 ning ayirmasiva buyurtmachilarning) qarzi		457661	482035
	(4000 dan		14 8	
13	Xodimlarning bosh(4700) qa operatsiyalar bo’yicha qarzi		457647	482027
			12977669	14461149
14	Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	32626	15073505	16650206
15	Pul mablag’lari, jami shu jumladan:	343461		
16	Kassadagi pul mablag’lari (5000)	5		
17	Hisoblashish schyotidagi pul mablag’lari (5100)	343456		
18	1-bo’lim bo’yicha jami: 10130537			
19	Balans aktivi bo’yicha jami 12251888 2016 y 2017 y			

20	Ustav kapitali (8300)	623435	623435	623435
21	Rezerv kapitali (8500)	932425	994905	945107
22	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan 168147 zarar) (8700)		151579	198332
23	Maksadli tushumlar (8800)	288115	2710027	2746770
24	Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari 125376 uchun zaxiralar (8900)		235919	125376
25	1- bo'limbo'yicha jami	2231491	4652075	4483459
26	Joriy majburiyatlar jami	10020397	10421430	12166747
27	shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlar	10020397	10358930	12166747
28	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000)	947627	1276968	1429588
29	SHo'ha va karam xo'jalik jamiyatlarga 5738916 qarz (6120)	2241773		3272667
30	Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	6248342	5614590	4039687
31	Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (6400)	94001		26240
	519787			
32	Maksadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz (6520)	387622	18778	107805
33	Tahsischilarga bo'lgan qarzlar (6600)		2386	2386
34	Mexnatga xak to'lash bo'yicha qarz 120908 (6700)	23074		73690
35	Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)		62500	62500
36	Boshqa kreditorlik qarzlar (6950 dan 210056	77958		73611

tashqari 6900)

37 **2-bo'lim bo'yicha jami:** 10020397 10421430 12166747

38 **Balans passivi bo'yichajami** 12251888 15073505 16650206

2.3-jadval

**“Taxos” xususiy korxonasi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti
tahlili (ming so'm)**

№	Ko'rsatkichlar nomi	2015		2017 y	
		D	X	D	X
1	Mahsulot (ish,xizmat) sotishdan sof tushum	20496450		17916636	
2	Sotilgan mahsulotlarning tannarxi	18901444			15763840
3	Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan yalpi foyda	1595006		2152796	
4	Davr xarajatlari, jami		1178496		2259483
5	Sotish xarajatlari		81506		116548
6	Mahmuriy xarajatlar		38150		327484
7	Boshqa operatsion xarajatlar		1058840		1815451
8	Asosiy faoliyatnin gboshqa daromadlari	39283		2175	
9	Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	416510			104512
10	Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami			529527	
11	Dividendlar shaklidagi daromadlar			11	
12	Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari			529516	
13	Moliyaviy aoliyat bo'yicha xarajatlar		221035		156648
14	Foizlar shaklidagi xarajatlar		221035		156648
15	Umumxo'jalik faoliyatning foydasi (zarari)	195475		268367	

16	Daromad (foyda) soligi tulangunga kadar foyda(zarar)	195475		268367	
17	Daromad (foyda)dan soliq		30696		85599
18	Foydadan boshqa soliqlar va yigimlar		13182		14621
19	Hisobot davridagi sof foyda (zarar)	151597		168147	